

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida*

**UDK 9(575.1):633.51**

**HIMMATOV FAZLIDDIN**

**“XX asrning 60-70 yillarida O'zbekistonda paxta yakkahokimligining  
kuchayishi va uning salbiy oqibatlari”**

**5A120301- O'zbekiston tarixi**

**Magistr**

**akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**dissertasiya**

**Ilmiy rahbar:**

**dots.R.Sh.Xoliqulov**

**Samarqand – 2012**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	<b>3-11</b>
<b>I BOB PAXTA YAKKAHOKIMLIGINING QAROR TOPISHI.</b>	
1.1 Paxta yakkahokimligining qaror topishi va dehqonlar ommasining qashshoqlashishi.....	12-15
1.2 Chorizmning paxta siyosati va uning salbiy oqibatlari.....	16-18
<b>II BOB O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILGAN PAXTA YAKKAHOKIMLIGI, UNING OQIBATLARI.</b>	
2.1. Sho'rolar davrida paxtachilikning ahvoli.....	19-30
2.2. Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda paxta yakkahokimligi, uning daxshatli oqibatlari.....	31-39
<b>III.BOB. O'ZBEKISTONDA PAXTA YAKKAHOKIMLIGINI KELITIRIB CHIQARGAN DAHSHATLI HOLATLARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA TADBIRLAR.</b>	
3.1. Shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining ahvoli va uni yaxshilashga qaratilgan choralar.....	40-50
3.2. Ekologik muammolar va ularning ijobiy echimi.....	51-60
<b>XULOSA</b> .....	<b>61-64</b>
<b>FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR</b> .....	<b>65-66</b>

## **Kirish**

### **Mavzuning dolzarbligi**

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng halqimizning iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'tmishimizga, uning tarixiga qiziqish tobora ortib bormoqda. Mustabid sovet tuzumi davrida xalqimiz tarixi undagi tarixiy voqyealar, xodisalar, bir tomonlama, sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazaridan yoritib kelindi. Tarixchilar oldida turgan yendigi vazifa-xalqimiz Vatanimiz tarixini qanday bo'lsa, shundayligicha, rangli bo'yoqlarsiz, har tomonlama dalil va isbotlarga tayanib yoritib berishdan iboratdir.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov 1998 yil tarixchi olimlar bilan uchrashuvidagi maruzasida shunday takidlandi: «madomiki o'z tarixini bilgan undan ruxiy quvvat oladigan halqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur, tarix bilan qurollantirish,yana bir bor qurollantirish zarur»<sup>1</sup>

Tariximizni tiklash uning rolini oshirish,holisona yoritishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 16 dekabrda «O'zbekistonning yangi tarixini yaratish» to'g'risidagi hamda «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida» gi 1998 yil 27 iyuldagi qarorlari juda katta ahmiyatga ega bo'ldi. Qarorda tarix sohasida o'z yechimini kutib yotgan asosan nazariy va amaliy masalalar bilan bir qatorda «jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch»-marifatning asosiy ustunlaridan biri bo'lgantarix fanini rivojlantirish maqsadida, Vatan tarixining dolzarb muommolarini yorituvchi davriy to'plam nashr etish ko'zda tutilgan edi. Undan tashqari qarorda yana bir asosiy masala tarix fanida «o'zbek halqining tarixi,uni o'rganish davlatchiligi tarixi, jumladan xalqning ijtimoiy-iqtisodiy,madaniy tarixini yoritishga ham katta etibor qaratildi»<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup>I.A.Karimov «Тарихий хотирасиз келажак йўк».Тош.1998й.24-25бет.

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг1998 йил 27 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тугрисида»ги қарори.(Халқ сўзи.1998йил 29 июл).

Tarix fanida muhim, hal qilinishi lozim bo'lgan masalalardan biri, O'zbekistonda paxta yakkahokimligining qaror topishi, uning bosqichlari, sabablari hamda uning halqimiz hayotiga olib kelgan salbiy oqibatlari masalasidir.

Sovet davlatining paxtachilik siyosati ayniqsa Halq xo'jaligi Prezidiumi Oliy Sovetining (VSNX) bosh paxtachilik qo'mitasi (glovxlopkom) tashkil topishi bilan yaqqol namoyon bo'ldi.

Bu qo'mita 1921 yil sentyabr oyida RSFSR OXXK huzurida tashkil topdi. Qo'mitaning ustavi ham qabul qilindi va unga ko'ra O'zbekistonda yetishtirilayotgan paxta xom-ashyosi davlat monopolyasiga aylantirildi. Shunday qilib O'zbekiston Markazning asosiy xom-ashyosi yetkazib beruvchi yirik bazasiga aylanib bordi. Paxta yetishtiruvchi respublikalarda ham unga bo'ysinuvchi paxtachilik qo'mitalari tuzila boshlandi.

Mustabid tuzumi davridagi paxtayakkahokimligi, mustamlaka tuzumiga xos bir yoqlama rivojlangan iqtisodiyotning halokatli tarzda, yeng yomoni, ularning jon boshiga to'g'ri keladigan daromad darajasining o'ta pastligida, tomorqa yerlarining keskin kamayib borishida, millatning salomatligi, uning genofondiga salbiy tasirlarining kuchayishida, bolalar va onalar o'limining avj olishida, o'lkamizning ekalogik nochor holatida va boshqa ko'plab mamlakatlarda yaqqol namoyon bo'lgan edi.

Jaxondagi har bir halq o'zining geografik o'rni va iqlimiga bog'liq bo'lgan holda biror xil qishloq xo'jalik maxsulotini yuqori darajada yetishtirish yoki ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Respublikamiz qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning asosini texnika yekini bo'lgan paxta yetishtirishga moslashtirilgan.

O'zbek halqi o'z tarixida ikki marta paxta yakkahokimligining jabrini tortgan. Birinchisi, podsho Rossiyasi mustamlakachiligi davrida, ikkinchisi, 74 yil hukum surgan sobiq sho'rolar davrida.

Turkiston o'lkasini mustamlakaga aylantirgan podsho Rossiyasining amaldori Krivosheni bu siyosatni shunday ifodalaydi; «har bir pud Turkiston bug'doyi-rus va sibir bug'doyiga raqobatdir, har bir Turkiston paxtasi yesa Amerika paxtasiga raqobatdir, shuning uchun o'lkada tashib keltirilgan qimmat

donni berib bo'lsada u yerdagi sug'oriladigan maydonlarni paxta yekini uchun bo'shatish kerak»degan edi. O'lkada paxta maydonlarining ko'payishi katta hududlarga Amerika paxta navining yekini, avvalo oziq-ovqat yekini miqdorining kamayishiga aholining oziq-ovqat maxsulotlariga bo'lgan talabning oshishiga bozorlarda bu maxsulotlarning narxini keskin ko'tarilishiga olib keldi. Oqibatda Turkiston aholisi o'rtasida oqsilga boy bo'lgan go'sht va go'sht maxsulotlarining istemollari, meva va poliz yekini miqdori kamaydi. Aholi o'rtasida turli xil kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ldi.

O'zbekistonda paxta yakkahokimligining ikkinchi davri xx-asrning 30 yillarida, sobiq sho'rolar davrida shakllandi. Sobiq sho'rolar tuzumi iskanjasida bo'lgan davrda O'zbekiston asosan, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lib SSSRda yetishtirilgan paxtaning uchdan ikki qismini yaratib, SSSR sanoat markazlarining va hatto butun sotsialistik tuzumning xom-ashyo bazasiga aylanib qolgan edi. Respublikaning barcha iqtisodiy resurslari paxta deb atalgan majmuaga yo'naltirilib xo'jalikning boshqa soxalari etiborsiz qoldirildi. Paxta yakkahokimligining vujudga kelishi oqibatida respublikaning don va undan olinadigan o'ta muxim oziq-ovqat xom-ashyosi turlari go'sht va sut bo'yicha, yan'i eng zarur oziq-ovqat ta'minoti bo'yicha markazga boshqa respublikalarga qaraganda qaramligi vujudga kelgan edi. Statistik malumotlarga qaraganda ikkinchi jaxon urushidan keyingi yillarda Respublika aholisi jon boshiga go'sht maxsulotlari istemoli 1980 yilda 31 kg, 1987 yilda 29 kg ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich sobiq ittifoqda 62-64 kg, ho'l meva vasabzovot istemoli bizda 170-173 kg, ittifoqda yesa 260-270kg dan ortiq bo'lgan.

Vaholanki bu davrda respublika axolisining non va non maxsulotlariga istemoli darajasidan bir necha barobar yuqori bo'lib, aholi jon boshiga bu maxsulotlarni istemol qilishi o'rtacha 1980 yilda 177 kg, 1987 yilda 217.2 kg ni tashkil etgan. Bu juda ayanchli axvol chunki tibbiy xulosalarga ko'ra sog'lom inson bir yilda 100-110 kg non va non maxsulotlari istemol qilishlari mumkin. Undan ko'p istemol qilish insonda turli xil kasalliklarni noo'rin

semirish,keraksiz vazinning ortishi esa yurak qon tomirlarida turli xil kasalliklarning ko'payishiga olib keladi.

Paxta yakkahokimligi tufayli ilmiy jixatdan asoslangan almashlab ekish tizimi buzildi.O'tgan asirning 60-80 yillarida respublika paxta maydonlariga beda va makkajo'xori hamda boshqa yekinlarni almashlab yekish atiga 14% ni tashkil etdi. Bu ahvolda shu narsa ma'lumki asosiy yer maydonlariga 10 yillar davomida doimiy paxta yekilib kelingan. Buning oqibatida yerning hosildorligi yildan-yilga kamaydi, unumdorlik pasaydi.

Ma'lumotlarga qaraganda paxta yetishtiriladigan davlatlarda paxta maydonlarining salmog'i 60%dan oshmasligi lozim. XX asirning 60-80 yilarida O'zbekistonning ba'zi viloyatlarida paxta yekin maydonlari 70-80%ga hatto Andijon viloyatida umumiy sug'oriladigan yer maydonining 85% ga paxta yekildi. Masalan, 1970 yilda ushbu viloyatda 244 ming .gk sug'oriladigan yerlarda 192 ming.gk, Farg'ona viloyatiga 277 gk.dan 209 ming.gk.ga doimiy ravishda almashlab yekishlarsiz paxta yekib kelingan.

Paxta yakkahokimligi tufayli ilmiy jixatdan asoslangan almashlab yekish tizimi buzildi, yer o'z hosildorligini yo'qota bordi.Uning oqibatida paxta hosildorligi har gk yerdan 25-29 sentnerdan oshmadi. Hotto Samarqand viloyatidagi ba'zi tumanlardagi paxtachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar har gk yerdan 7-9 sentnerdan hosil olgan halos. Vaxolanki bu davirda ba'zi paxta yetishtirib beruvchi rivojlangan davlatlar har gk paxta maydonidan 65-70 sentnerdan hosil olishgan (Isroil davlati).

Paxta yakkahokimligining kuchayishi qishloq xo'jaligining ko'plab soxalarini qaloqlikka olib keldi. Paxta maydonlarining ko'payishi avvalambor shaxsiy yordamchi xo'jaliklar tomorqa xo'jaliklarning qisqarishi evazigaamalga oshirildi. 50 yillarning oxirida respublika raxbarlarining tashabbusi bilan sug'oriladigan yerlarda tomorqalar hajmi o'rtacha 25 sotixdan 13 sotixga,hatto 8 sotixdan, bora-bora 6-3 sotixga tushirildi. Ayniqsa bunday xolat Farg'ona va Toshkent viloyatlarida ommaviy tus oldi. Bunday sharoitda o'zbek oilasi qanday

qilib o'z oilasini go'sht maxsulotlari, poliz yekini, meva va boshqa oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'mindashi mumkin edi.

Oqibatda bunday turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini tanqisligi sezildi, bozorlarda narx-navo osha boshladi. Bunday tovarlarni chetdan respublikamiz hududiga olib kelish ko'paydi. Bu esa xalqimiz boyligini talon-taroj qilishga olib keldi.

„Ma'lumki-deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov- sobiq tuzum davrida respublikamizning iqtisodiyoti bir tomonlama rivojlangan raqobat homashiyo yetishtirishga yo'naltirilgan bo'lib, ma'lum salbiy oqibatlarga olib kelagan paxta yakkahokimligini avjiga chiqqan edi.

O'zbekiston o'zining qoloq ishlab chiqarish va sasiol infrotuzulmasi bilan sobiq ittifoqda jon boishiga istemol darajasida bo'yicha eng pas o'rinda turadi”.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki O'zbekistonda yetishtirilgan paxtaning 95 % shu yerda qayta ishlanmasdan, respublikadan tashqariga olib chiqilib ketilgan. O'zbek paxtasi qayerda qayta ishlansa asosiy foydani o'sha joy ko'rgan. Chunki bu davrda Respublikada qishloq-xo'jhalik maxsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari yetarli emas edi. Respublikadagi bunday muammoga markaz „panja orasidan” qarab kelingan. Respublikadagi bu xolatni Respublika Prezidenti I.A.Karimov shunday izohlaydi „Paxta tolasi belgilab qo'yilgan past narxlarda O'zbekistondan tashqarida jo'natildi va xamon jo'nati;moqda. Buning evaziga nima berilmoqda? Paxta yetishtirishda mehnatning 84% bizning zimmamizga tushmoqda va uni qayta ishlashdan keladigan daromadning atiga 16 % bizga tegmoqda. Paxtani olayotgan boshqa respublikalarda nisbatan aksincha bo'lmoqda. Masalan, aytaylik, Possiyada to'qilgan va tikilgan tayyor ko'ylak g'oyat katta foyda keltirmoqda. Mehnati- bizga, puli boshqalarga. Mamlakatning „Paxta sexi” bo'lishi mana nimani anglatadi.”<sup>1</sup>

Xulosa qilib aytganda qishloq-xo'jaligida sobiq ittifoq davrida amalga oshirilgan paxta yakkaxokimligi o'lkada juda ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Paxta maydonlarining tinimsiz ortib borishi Mirzacho'l, Jizzax, Qarshi

va boshqa hududlarda cho'llarning o'zlashtirilishi oqibatida respublikada XX asrning 60- yillarida ichimlik suvi, uy- joy aholi sog'lig'i hamda eng katta global muammolarni bartaraf etish Mustaqil Vatanimiz, xalqimiz, qolaversa biz yoshlarning kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifamizdir.

O'zbekistonda sobiq ittifoq davridagi paxta yakkahokimligi uni amalga oshirishdagi turli xil tadbirlar, uning salbiy oqibatlari o'sha davrdagi respublika raxbarlari, ommaviy axborot vositalari tomonidan yoki ilmiy izlanishlarda umuman yoritilmagan.

Shu sababli markazning O'zbekistonda amalga oshirgan paxta yakkahokimligi, uning bosqichlari, paxta maydonlarining yildan- yilga ortib borishi, uni amalga oshirishda asosan aholining tomorqa xo'jaliklarini qisqarishi, oziq- ovqat ekinlarining miqdorini kamayishi, unga nisbatan talablarning oshib borishi, O'zbekistonda ichimlik suvining yetishmasligi, sug'oriladigan yerlarning hosildorligini pasayishi, eng katta global muammo- Orol fojiasining paydo bo'lishi, orol atrofida ekologik holatning yomonlashuvi, turli xil kasalliklarning ko'payishi, onalar va bolalar o'limining yildan- yilga ortib borishi, bu esa insonlar orasida genofondning yo'qolishiga olib kelishi masalalari bu magistirlik ishda o'z aksini topdi. Masalan, birgina muammo, bolalar o'limini oladigan bo'lsak, respublika bo'yicha 1984-1985 yillarda har ming nafar tug'ulgan chaqoloqdan 1 yoshgacha 46.2 tasi nobut bo'lgan.<sup>2</sup>

Mavzu asosan II bob va V ta bo'limdan iborat. Ishning I bobida podshoh Possiyasi davrida Turkistonda amalga oshirilgan agrosiyosat hamda sho'rolarning 2-jahon urushigacha bo'lgan davrdagi agrosiyosatidagi tadbirlari, paxta yakkahokimligining qaror topishi, „harbiy kommunizm“ va YaIS ning amalga oshirilishi, O'zbekistonda amalga oshirilgan yer- suv islohotlari va ularning mustamlakachilik mohiyati yoritib beriladi.

Ishning asosiy qismi, II bobida 2-jaxon urushidan so'ng O'zbekistonda agror tanglik, iqtisodiyotning 1 tomonlama rivojlanishi, paxta maydonlarining

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov „O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida; Toshkent, O'zbekiston 2011 353- 354- bet

<sup>2</sup> ЎзДМА. 2454- фонд, 6- рўйхат, 5981 йиғма жилд, 58- варақ

tobora ortib borishi, Sirdaryo, Jizzax, Mirzacho'llarning o'zlashtirilishi, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida yangi paxtachilikka ixtisoslashtirilgan xo'jaliklarning ko'payishi, sug'oriladigan yer maydonlarining qisqarishi, yuqori darajadagi sho'rlanish, erroziyaning kuchayishi hosildorlikni pasayishi, Orol fojiasi uning salbiy oqibatlari va nihoyat O'zbekistonda paxta yakkahokimligini oldini olishda muxtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning sayi- harakatlari o'z ifodasini topgan

### **Mavzuning o'rganish darajasi.**

O'zbekistonda paxta yakkahokimligining qaror topishi, uning salbiy oqibatlari, respublikamiz qishloq xo'jaligiga keltirilgan zarari, aholi sog'ligiga salbiy ta'siri masalalari O'zbekiston mustaqillikga erishgandan so'ng keng qamrovli holda o'rganila boshlandi. Lekin sobiq ittifoq davrida bu holni haqqoniy yoritishdga harakat qilindi. Ammo bunday ilmiy qo'llanmalar sanoqli edi, masalan, respublikamiz qishloq- xo'jaligi tarixi bilan shug'ullangan eng ko'zga ko'ringan olimlardan biri akademik R. X.Aminova<sup>1</sup> edilar. U kishi O'zbekistonda agro sohaning eng bilimdoni fidoiy inson edilar.

Undan tashqari sovet hokimiyatining O'zbekistonda olib borgan paxta siyosati, yakkahokimligi to'g'risida N.A.Abirqulov, I.A.Alimov, I.V. Boqayev, A. D. Djo'rayev, D. M. Isoqov, X.S.Saidov, R.Tolipov, N. Ergashevlarning<sup>2</sup> ko'plab monografiyalari, ilmiy asarlari, maqolalari chop etildi.

O'zbekiston mustaqillikka reishgandan so'ng bu mavzuda juda ko'plab ilmiy asarlar monografiyalar chop etildi kandidatek, doktorlik dissertasiyalari himoya qilindi. Bu davrda R.X.Aminova, A. A. Golovanov, A. A. Razoqov, R. N.Shamsutdinov, Q.Rajjabov, X.Ziyayev, N. Oblomurodovlar<sup>3</sup> ilmiy izlanishlar

---

<sup>1</sup> Р.Х.Аминова «Аграрная политика Советский виасти в Узбекистане(1617-1991)Тошкент,1963-344бет, агрорние преобразования в Узбекистане в годь перехода советиского гсударства к НЭПУ.Таш-т,наука,1965-345бет,Осушествление коллективизация вУзбекистане(1929-1932г)Тошкент,фан,1977-312бет.

<sup>2</sup>И.А.Алимов Узбекское деханства на пути социализму.Т-т,Узбекистан,1973-148б;БабковИ.В интенсификация хлопководства в Узбекистане.Та-т,Уз-н 1968,128бет;Р.Толипов Агропромсашленная интегрални в хлопководства.Та-т,Уз-н 1979,-179бет.

<sup>3</sup> Р.Х.Аминова История савхозов Узбекистана 1917-1960г,Тош-т,фан 1993,-248б;Голованов А.А., СаидовИ.М.Узбекиская деханство на историческом повороте второе

olib borishdi va ularning ushbu mavzuni har tomonlama qamrab olgan yetuk asarlari chop etildi va o'quvchilar qo'liga yetkazildi.

Akademik R.A.Aminovning monografiyasida sovet davlatining O'zbekistonda amalga oshirilgan jamoalashtirish siyosati hamda respublikada savqoslar qurilishining salbiy oqibatlari yoritilgan bo'lsa boshqa ishlarda sovet hokimiyatining kalxoz- savxoz qurilishi sohasidagi kamchiliklar, xatolar yoritib berilgan.

Bu mavzuda A.Abdullayevning O'zbekistonda paxta yakkahokimligi va uning oqibatlari (1917-1991) nomli tarix. fan. Doktori ilmiy unvoni avtorefarati T:2010 juda katta axamiyatga ega bo'ldi. A.Abdullayev<sup>1</sup> tomonidan chop etilgan uslubiy qo'llanma va ilmiy maqolada O'zbekistonda paxta yakkahokimligining qaror topishi, undan ko'zlangan maqsadlar, uning salbiy oqibatlari har tomonlama yoritib berilgan.

### **Tadqiqotning maqsad va vazifalari**

O'rganilayotgan mavzu nihoyatda dolzarb bo'lib unda O'zbekistonda paxta yakkahokimligining qaror topishi, uning salbiy oqibatlari, respublikamiz iqtisodiyotiga ko'rsatgan ta'siri ochib beriladi.

Mavzuning mohiyatidan va tariximizning hozirgi kundagi talablarini hisobga olib quydagi vazifalarni ilmiy jihatdan yoritishga harakat qilindi.

- Paxta yakkahokimligining mohiyatini ochib berish;
- Paxta yakkahokimligining qaror topishining asosiy bosqichlari;
- O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohotlari va ularning mustamlakachilik mohiyati;
- 2- Jahaon urishidan keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanishi va uning iqtisodiy o'sishiga salbiy ta'siri;
- Aholining tomorqa xo'jaliklarining salmog'ining kamayib borishi paxta maydonlarining salmog'ining oshib borishi;
- O'rta Osiyoda ekologik holatning yomonlashuvi, Orol fojiasi;

- O'zbekistonda sug'oriladigan yer maydonlarining kamayishi cho'l hududlarining ko'payishi;
- O'zbekistondagi asosiy sug'oriladigan yer maydonlarining erroziyaga uchrashi, sho'rlanish darajasining ortib borishi;
- Global muammo bo'lgan orol fojiasining kelib chiqish sabablari, aholi sog'ligini yomonlashuvi, onalar va bolalar o'limining ko'payish sabablari;
- O'zbekistonda amalga oshirilgan paxta yakkahokimligining oldini olishda Respublika Prezidenti I.A.Karimovning beqiyos xizmati

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi**

Ilmiy ishda O'zbekistonda amalga oshirilgan sobiq ittifoq davridagi paxta yakkahokimligining salbiy oqibatlari yangi avlod adabiyotlari yani mustaqillik davri adabiyotlari yordamida yoritilib yagona xulosaga kelindi.

Tadqiqotning obektiv predmeti: Ushbu mavzuda O'zbekistonda sobiq ittifoq davrida amalga oshirilgan paxta yakkahokimligining o'lkaga olib kelgan salbiy oqibatlari tadqiqot predmeti sifatida belgilab olindi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati: birinchidan, o'zbek dehqonlari hayoti tarixida,, oq dog'lar" ni yig'ilgan manbalar asosida ilmiy tahlil qilib, bunday dog'larni yo'qotish:

Ikkinchidan tadqiqot natijasida keyingi davrda respublika qishloq xo'jaligining ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishida foyda berishi mumkin: Uchinchidan desirtasiya materiallari O'zbekiston tarixini agro sohasini rivojlantirishda, agror sohada ma'ruza o'tish, matbuotda materiallar chop etish uchun foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

# **I BOB PAXTA YAKKAHOKIMLIGINING QAROR TOPISHI**

## **1.1 Paxta yakkahokimligining qaror topishi va dehqonlar ommasining qashshoqlashishi**

Tarixiy manbalarga qaraganda bizning zaxmatkash aholimiz paxta yakkahokimligining ikki marotaba tortib ko`rgan xalq hisoblanadi. Bu tadbirning birinchi davri podsho Rossiyasi tomonidan O`rta Osiyo xonliklari bosib olingan davrdan boshlangan edi.

Rossiya mustamlakachilari O`rta osiyo istilosidan keyin o`lkada yildan- yilga paxta maydonlari va paxta xom ashyosi miqdorini ko`paytirishga harakat qildilar. 1860- o`lkada yalpi 25 ming tonna paxta hosili yetishtirilgan bo`lsa, 1916-yilga kelib bu ko`rsatkich 610 ming tonnage yetdi. Ramiy ma`lumotlarga ko`ra shuni ta`kidlash joizki, Rossiya saltanati dastavval yer suv va mulkchilik masalalarini “tartibga solish” ga kirishdi. Milliy dehqonchilik madaniyatini o`zgartirishga harakat qildi. Bu yo`lda rus mustamlakachilari mahalliy mardikor va chorakorlarni ishlatdilar. Ayniqsa, mustamlakachilarning mahalliy savdogarlar bilan til biriktirib sudxurlikni yo`lga qo`yilishi oz mablag` sarflab, ko`proq mablag` topish imkonini vujudga keltirdi. Rossiya Turkiston aholisini beshafqat ekspluatatsiya qilish uchun hukmron doiralarga qulay shart- sharoitlar vujudga keltirdi va paxta yakkahokimligini o`rnatishga muvaffaq bo`ldilar. Bu hol, yani paxta yakkahokimligi Rossiya boyligiga boylik qo`shgani holda Turkiston xalqlarining moddiy ham ma`naviy jihatdan qashshoqlanishiga olib keldi.

Dehqon ahli qul kabi ishladi va ayanchli hayot kechirdi, uning xujaligi va turmushi shunday haroblarshdiki, hatto ro`zg`orida ikki- uchta temir asbob, spool idish, yirtiq, yag`iri chiqqan bir necha yostiq- ko`rpachadan boshqa narsasi qolmadi. Ovqati atala yoki oq juxori, bug`doy va arpani qatiqqa aralashtirib, guja qilib ichishdan nariga o`tilmadi. Xullas, ana usha davr dehqonlari aytganidek: Oq paxta yuzidagi ‘dog`’ - qora ofat keltirdi.

Paxta maydonlarida asosan mardikor va chorakorlar ishlagan. Chorakorlar uch xil bo`lgan;

1) birinchi guruh chorakorlarga bir guruh yer-suv, asbob-uskunalarni hamda qarzga olgan pulini qaytarishi shart edi;

2) ikkinchi guruh chorakorlar yer-suvdan tashqari asbob- ukuna olish bilan kifoyalanib, yetishtirgan hosilning beshdan ikki qismini to`lar edi;

3) uchinchisida chorakorlar yerdan foydalanib, hosilning sakkizdan to`rt qismini to`lar edi.

Paxta yakkahokimligi g`alla, arpa, oq juxori yetishtiruvchi xujaliklarni xonavayron etgan. Asrlar davomida rivojlanib kelayotgan bog`dorchilik, uzumchilik, polizchilik va chorvachilik ham bora-bora izdan chiqa bordi, ular ustidan ham mustamlakachilar o`z hukmronligini o`rnatdilar. Ko`pgina qishloq aholisining chorva moli bo`lmagan. Chunonchi, Farg`ona viloyatida 41.3 , Sirdaryoda- 20.3 , Samarqandda- 27.3 va butun Turkiston o`lkasida 30 %dehqon xujaligi (xonadoni) chorva mollariga mutlaqo ega bo`lmagan<sup>1</sup>. Oqibatda ularning aksariyati yashash joylari va yerlarini sotishga yoki tashlab ketishga majbur bo`lganlar.

1869-yil Turkiston general- gubernatorligi tomonidan tasdiqlangan Rossiyaning markaziy tumanlaridagi dehqon (mujik)larni ko`cherish siyosati ham o`lka aholisining yerga bo`lgan muhtojligini oshirib yubordi, ular yangidan-yangi kulfatlarni keltirib chiqardi. Masalan 1868-1907 yillarda Turkistonga 53692 rus oilasi ko`chirib keltirilgan. Ko`chirib keltirilgan rus aholisiga asosan unumdor, sug`oriladigan yerlar va chorvasi uchun yaxshi yaylovlar berilgan.

Rossiya mustamlakachilarining mahalliy aholini xonavayron qilgan tadbirlaridan yana biri –soliq va boshqa to`lovlarni oshirib yuborishidir. 1870 yildan boshlab yer solig`i joriy etildi va har yili turkiston aholisidan yer, utov, obrok kabi soliqlar buyicha 6 million rubl yig`ib olingan. Bundan tashqari aholidan soliq olishning 5turi davlat xazinasini uchun, 6 turi esa jamiyat jamoat ishlari uchun undirib olingan. Bundan tashqari dehqonlar boshqa xil mahalliy soliqlardan ham ozod etilmagan.

---

<sup>1</sup> Абдуллаев А. Оқ пахта юзидаги “доғ” лар” Мулоқот” 2003, № 6 б 28

Paxtaga boʻlgan ehtiyoj kuchayishi shu darajaga olib keldiki, paxtachilik butun aholining kuchi va eʼtiborini oʻz girdobiga olgan sohaga aylanib ketdi. Paxtachilik rivojlanishi bilan xom ashyo yetishtirish yuliga oʻtib olgan dehqonlar ahvoli toboro ogʻirlashib bordi. Chunonchi, ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganini kursatuvchi bu jarayon ishlab chiqarish kuchlari keng rivojlanmagan mustamlaka oʻlkada boʻlayotganligi sababli yana koʻproq ogʻir oqibatlariga olib kelib, ayniqsa oziq-ovqat maxsulotlari masalasida ham qiyinchiliklar keltirib chiqardi<sup>1</sup>.

Turkiston dehqonlarining qashshoqlanishiga yana bir sabab paxtani sotib olishda mahalliy qishloq oqsoqollari uni chigit va chanogʻidan tozalovchilar va aravakashlarning dalloligidan rus mustamlakachilarining keng foydalanishi boʻldi. Chunki paxta tozalovchilar bevosita dallollik bilan shugʻullanib, firma bilan dehqonlar oʻrtasida tuziladigan hujjatlarni rasmiylashtirib, qarz olib berishgan. Aravakashlar ham boʻlgʻusi hosilni aniqlab, oldi sotdini yoʻlga quygan va qarz olib berish huquqiga ega boʻlishgan. Oqibatda, yuqorida taʼkidlangan savdogarlar, vositachilar va yugurdaklar shu darajada zolim, firibgar va nayrangboz boʻlishganki, ular qazini tulay olmagan dehqonning mol-mulkini musodara etibgina qolmadan balki kaltaklashgan, qamab quyishgan hatto qarzdorlarning xotinini sotish bilan ham shugʻullanishgan.

Rossiyaning 1906 yil “Quqon birja qumitasi” ni tuzishi ham rus savdogarlari, chinovniklari uchun qoʻl keldi va mahalliy dehqonlarga berilgan qarzlilar tez orada jaraq-jaraq pullar bilan ularning chuntagini toʻldirdi. Chunki berilgan qarz (veksel) larning foizi oshib brogan. Masolanh 1910 yil 10 yanvarda qarz 100 foiz boʻlsa, 1914 yilga kelib bu kursatgich 237 foizga oshgan. Bunga asosiy sabab paxtakor dehqonning rus tilini bilmaganligi, tozalovchi va boshqa vositachilarning hiyla-nayranglari boʻlgan.

Shunday qilib rus mustamlakachilari boshchiligida savdo va sanoat firmalari oʻlka aholisini, ayniqsa paxtakorlarni asorat tuzogʻida tutib, ularni qashshoqlanish, xurlanish, ezilish va xarobga aylantirish siyosati oʻlkada paxta yakkahokimligini

---

<sup>1</sup> Муртозаева Р ва бошқалар Ўзбекистон тарихи Т.: 2003,6 347

joriy etdi. Shuning uchun ham Turkiston xalqi oq paxtaning yuzidagi “dog`”  
domida yashashga mahkum etildi.

## 1.2 Chorizmning paxta siyosati va uning salbiy oqibatlari

Ma'lumki, mustamlakachilarning asosiy maqsadlaridan biri to'qimachilik sanoatini paxta xom ashyosi bilan ta'minlashdan iborat edi. Lekin ular bunga erisha olmadi. Chunki Turkiston aholisi to'qimachilik sanoati ehtiyojlariga to'la javob bermasdi. Usha davr mutaxassislarining fikricha, Xivada yetishtirilayotgan paxta garchi Amerika paxtasidan qolishmasada kam hosilligi uchun talabni qondirmas edi. U o'zining sifati va mayinligi jihatidan mahalliy g'uz navlaridan ustunlik qilgan. Buxoro paxtasi Toshkent va Farg'ona vodiysi paxtasiga qaraganda sifatliroq va tolasi uzunroq edi. Umuman olganda, mahalliy navli paxtalar hunarmandchilik to'qimachiligi va mahalliy gazlamalar ishlab chiqarishga moslashgan bo'lib, ko'p asrlar moboynida ichki va tashqi bozor talabini qondirib kelgan. Zamon taqozosiga ko'ra, mahalliy paxta navlari o'zining kamhosilligi va tolasining kaltaligi bilan to'qimachilik sanoatiga mos tushmay, Amerika paxtasi bilan raqobat qila olmay qoldi. Natijada chorizmning hukmron doiralari Amerika paxtasini iqlimlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi. Bu ishni birinchi bo'lib N.N. Raevskiy boshlab berdi. U dastavval Qrimda Amerika paxta navini iqlimlashtirish ustida tajriba o'tkazdi va rossiyaga Turkistondan paxta keltirish o'ta qulayligi hamda foydaliligini isbotladi. Uning yozishicha, Rossiyaga har yili 3.088.285 pud (42710136 sumlik) paxta keltirilgan. Shundan 2.449.043 pud paxta (36.753.645 so'mlik) Sharq mamlakatlaridan olib ketilgan. Shu tariqa, Sharq paxtasi 21 % ni Ovrova orqali keltirilgan paxta 79 %ni tashkil etgan.

Hokimiyat vakillari 1871-72 yillarda 200 pud Amerika paxta navini ekish uchun tekinga tarqatdi. 1871 yilda Samarqandda paxta tajriba stansiyasi ochilib, SiAyland nomli Amerika paxta urug'i ekildi. Amerika paxta navlarining iqlimlashtirilishi sifatli tola olish mumkinligini ko'rsatdi. Shu bois kapitalistlar "O'rta Osiyo paxtachilik sanoati shirkati" -ni tuzish taklifini o'rtaga tashladi. Ular paxtachilikni rivojlantirish uchun har tomonlama moddiy va texnikaviy yordam berilishini o'qtirishdi. Bundan ko'rinadiki, rossiya hukumati va kapitalistlari turkistonda paxtachilikni rivojlantirishga qattiq kirishganlar. Bu saiy harkatlar o'z

natijasini berdi ham. Bu haqda Rossiya dehqonchilik deportamentining vakili V.I. Masalskiy shunday yozadi: “O`tgan qisqa vaqt ichida Turkistonda paxtachilik bilan maxsus shug`ullanuvchi korxonalar paydo bo`ldi. Sharoitga mos tushadigan Amerika paxtasi iqlimlashtirilib, paxta tozalash zavodlari qo`rildi, ancha takomillashtirilgan dehqonchilik qurollari yuzaga kela boshladi. Paxta bilan ish yurituvchi yirik fermalar faoliyat kursatdi. Paxtani tozalash va transport usullari yaxshilandi”.

Darhaqiqat, XIX asrning oxirlariga kelib paxtachilikning mavqei yuqori darajaga ko`tarildi. Shuning uchun ham paxta maydonlarini kengaytirish birinchi vazifa bo`lib qoldi. Provardida o`lkada o`zlashtirilgan yerlarning hajmi oshib boraverdi. Butun Turkiston o`lkasida paxta maydoni 1895- yilda 142.527 desyatinani tashkil etgan bo`lsa, 1900-yilda 234.274 desyatinaga yetdi. Paxta maydonlarining kengayishi va hosilning ko`payishi orqali olinadigan daromadlar “paxta vasvasasi”ni kuchaytirib, Turkistondagina emas, balki Rossiyadagi manfaatdor savdo- sanoat doiralarini ham o`ziga rom qilib qo`ydi. Paxta maydonlari 1901-yildan 1916-yilgacha 260.013 desyatinadan 533.671 desyatinaga ko`paydi. Boshqacha aytganda, ko`rsatilgan yillar orasida ekin maydoni ikki baravar oshdi. XX asr boshlarida o`zbek paxtasi to`qimachilik sanoati talablariga to`la javob beradigan darajaga yetdi.

Turkiston o`lkasida paxtachilikning eng yuqori bosqichga ko`tarilgan vaqti 1915 yilda ko`zga tahliladi. Ma`lumki, mazkur davrda Birinchi jahon urushi bo`layotgani tufayli Rossiyaga Amerikadan paxtani o`zluksiz keltirishning imkoni bo`lmadi. Bu esa o`zbek paxtasiga bo`lgan e`tibor va talabni yanada kuchaytirdi. Ayni paytda, paxtaning narxi ham oshib bordi. Lekin baribir dehqonlarning mashaqqati mehnati orqasidan boshqalar ko`proq foyda ko`rardi. Chunonchi, yetishtirilgan paxta hosili turli firmalar tomonidan harid qilinib, mustamlakachi sanoat korxonalariga junatildirdi. Shuningdek, ular paxta maydonlarini tashkil etish va dehqonlarga qarz berish yo`li bilan ham mumay daromadlarni qo`lga kiritdi. Ayniqsa, Yaroslavl katta manufaktura „shirkati“ paxtani harid qilishda salmoqli o`rin egalladi. U Andijon, Samarqand va xujandda 2750 desyatinadan iborat paxta

maydonlariga ega bo`lib, daromadni ko`paytirishga harakat qildi. O`lkada shirkatning 16 ta paxta tozalash zavodi bor edi.

XIX asrning 80 yillarida “I.K.Poznanskiy ip gazlama aksionerlik jamiyati” o`z faoliyatini boshlab, katta hajmdagi paxta savdosi bilan shug`ullangan. Masalan, u 1890-1897 yillarda 1.120.000 pud paxtani sotib olgan. 1905 yilda Farg`ona, Samarqand, Kaspiyorti viloyatlari hamda Buxoro va Xiva xonliklaridagi tegishli zavodlarni o`z ichiga olgan “Xlopok” (“Paxta”) aksionerlik jamiyati tuzildi. 1909-1910 yillarga kelib, bu jamiyatning paxta bo`yicha savdo aylanmasi 11,5 million so`mga yetdi.

Paxtaning ahamiyati shu darajada katta bo`lganki, 1912 yilda o`lkadan markazga chiqarilgan mollarning umumiy qiymati 200 mln. hisoblangan bo`lsa, shundan 138 mln so`mni, ya`ni 70 foizini paxta qoplagan. O`zbek paxtasi 1890 yilda metropoliya to`qimachilik sanoatida ishlatiladigan paxtaning 8, 1900-yilda 33, 1910 yilda 43, 1914 yilda 58 va 1916 yilda 72 foizini tashkil qilgan. Paxtachilikning bo`nday darajada rivojlanishi bir qancha salbiy oqibatlarga olib keldi. Shuni ta`kidlash kerakki paxta maydonlari so`g`oriladigan va unumdor yerlarning egallanishi tufayli kengayib brogan. Bug`doy ekiladigan maydonlar 824.903 desyatina bo`lib, ular asosan so`g`orilmaydigan lalmi yerlarda yetishtirilgan. O`lkaning ba`zi tuman va qishloqlarida ekin maydonlarining 80-90 foiziga paxta ekilardi. Natijada oziq-ovqat maxsulotlari va yem-hashak tanqisligi yuzaga kelardi. Bu hol paxtakorlarni oziq-ovqat maxsulotlarini bozordan qimmat baholarda sotib olishga majbur etib, ahvolning yanada yomonlashishiga sabab bo`lgan. Xullas, chor hukumati paxta maydonlarining so`gorilayotgan yerlar hisobidan kengayishidan ikki tomonlama foyda olardi. Bunda chorizm faqat paxtadan emas, balki o`lkaga g`alla sotish bilan ham katta foyda ko`rar edi. Ikkinchidan, o`lkada paxtachilikni rivojlantirish metropoliyani Amereika paxtasiga bo`lgan qaramlikdan ozod qilib, sarflanayotgan million so`mlarni tejash imkonini berardi.

## **II. BOB O`zbekistonda amalga oshirilgan paxta yakka hokimligi, uning oqibatlari.**

### **2.1. Shurolar davrida paxtachilikning ahvoli**

Ma`lumki, bolsheviklarning “qishloqni sotsialistik o`zgartirish” dasturi oktyabr tuntarishidan ko`p vaqt o`tmay, e`lon qilindi. 1917-yil 6-dekabrda Turkiiston XKSning qaroriga muvofiq, o`lkada yerni sotish va sotib olish taqiqlandi. Davlatga qarashli yerlardan tashqar, barcha yerelar viloyat va uezd shurolari qo`liga o`tdi. Faqat mehnatkash dehqon qo`lidagi yerlar qoldirildi. Ijaraga yer berish taqiqlandi yoki ayrim hollarda qishloq, ovul qo`mitalarining ruxsati bilan bir yil muddatga beriladigan bo`ldi. Bu esa o`zidan –o`zi hom ashyo boyliklarini talash va tekinga olib ketish buyicha ish yuritgan chor hukumati siyosatining davomchisi sifatida ish yuritilgani, xalqning asosiy boyligi bo`lgan yerni qo`lga kiritish uslubi qo`llanilganidan dalolat beradi.

Bolsheviklar “Yer tug`risida”gi dekritning asosiy qoidalariga amal qilishmadi. Chunki Rossiyaning markazida bo`lgani kabi, turkistonda ham barcha yerlar davlat mulkiga aylantirildi. Bolsheviklar chor Rossiyasining vorisi sifatida imperiyacha asoslarni chuqurlashtirib, undan ham o`zib ketishdi, ular mahalliy yer tuzilishining o`ziga xos hususiyatlarini inobatga olmaadilar. 1917-yil oxiri va 1918-yil yozigacha boylar, savdogarlar va mehnatsiz kun ko`rayotgan toifadagi yerdorlarning mulki musodara qilindi yoki 1919-yil boshlarigacha 100 ming desyatnadan ortiqcha erlar tortib olindi. Keyinroq o`ziga to`q xujalik (qatlam) larning erlari ham musodara etildi.

Mustabid tuzum murakkab ijtimoiy muommolarni zo`ravonlik bilan hal qilishdan tashqari, xalqni aldash va laqillatish borasida ham ustalik qildi. Masalan, dastlab yer butunlay “umumxalq mulki” deb e`lon qilindi. Biroq bu xalqdan sir tutilgan shior edi. Chunki RSFSR MIQning 1919-yil 14 fevraldagi dekretiga muvofiq, Rossiya kabi Turkistonda ham barcha yerelar va ulardan kim kim foydalanishidan qat`i nazar, “yagona davlat mulki” deb ta`kidlandi, bu esa kommunistik mafko`ra hukmdorligi davrida, uni “yirik shuro xujaliklari, kommunalar yerga umumiy ishlov berish”ni yerdan foydalanishning eng asosiy

shakli, deb e'lon qildi. Yerdan yakka foydalanish esa “o'tkinchi va umrini yashab bo'lgan” narsa deb tariflandi. Endi mehnatkash dehqon, chorakor yoki mardikor faqat shahsiy mehnati orqaligina yerdan foydalanishi mumkinligi qayd etildi, yollanma mehnat va hususiy yerni ijaraga olish butunlay taqiqlandi. 1918-yil 26 fevralda Turkiston Respublikasi xalq komissarlari Kengashi “paxta ishlarini monopoliyalashtirish tug'risida”gi dekretidan kelib chiqib, “o'lkadagi paxtani musodara qilish tug'risida” qaror qabul qildi. Unga asosan, paxta zahiralari musodara qilish va davlat mulkiga aylantirish maqsad qilib qo'yildi. Shuningdek, bordi-yu, egalari qarshilik ko'rsatadigan bo'lsa, “joyida otib tashlashgacha bo'lgan choralar ko'rilsin” deyildi. Musodara qilish natijasida 2mln 657 ming pud paxta tolasi va 413008 pud paxta chigiti davlat hisobiga o'tkazildi. 1918-yil yozga kelib 7mln pudga yaqin paxta musodara qilindi. Bu esa Turkistonda jumladan o'zbekistonda markazning paxta yakka hokimligini o'rnatishning dastlabki qadami edi. Chunki, bolsheviklar rahbariyati va uning Turkistondagi vakillari paxta zahiralari musodara qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'lkadagi paxtachilikka yaqin bo'lgan sanoatni ham davlat mulkiga o'tkazishni tushunib yetishdi. Masalan, Turkiston o'lkasi paxtachilik bo'yicha komissari V.Shmidt paxtani musodara qilish va paxta korxonalarini milliyalashtirish tug'risidagi 1918 yil 2 martda markazga yo'brogan shoshilinch nomasida “Turkiston o'lkasidagi barcha paxta tozalash sanoati shu jumladan, yog` moy, sovun ishlab chiqaruvchi zavodlar ham Rossiyaning mulkiga aylantirilmoqda. Shu sababli bu tadbirni amalga oshirish maqsadida 591 mutaxassis yuboring” deyilgan edi. Undagi ko'rsatmalar asosida 1918 yil 5-martdagi Turkiston XKSning dekretiga muvofiq 273 paxta tozalash, 38 yog` moy sovun zavodlari hamda hom ashyo, tayyor mahsulotlar bilan shug'ullanuvchi korxonalari davlat mulkiga aylantirildi.

Paxta yakka hokimligini o'rnatgan markaz va Turkiston respublikasi”paxtachilik qo'mitasining 1918-yil 10-martda “dehqonlarga paxta ekishga yordam berish tadbirlari tug'risida” gi ko'rsatmasida urug`lik chigitning birinchi navi har bir pudini 8 so'mdan olinishini qayd etdi. Biroq dehqon haqiqatan ham “Mehnatkash”paxtakor ekani va yollanma mehnatdan foydalanmasligi o'z

ichki imkoniyati mavjudligi to'g'risida ma'lumotnomaga ega bo'lishi kerak edi. Bunday cheklash esa dehqonlarning "sotsialistik inqilob"dan kutgan umidlarini barbod qilib, butun mustabid tuzum davrida bu va shunga o'xshash rasmiyatchilikar yanada kuchayi, paxtakor o'zi yetishtirgan mahsulotdan o'zi bahramand bo'la olmadi.

Qishloqni "sotsialistik qayta qurish" ning soxta sxemalarini zo'ravonlik bilan joriy etishda bolsheviklar hukumati chorizmdan ham oshib tushdi. Xususan, paxta yetishtirish o'ziga xos jarayondan iborat, yani mavsumiy ishlov berish, hosilni yig'ib- tereib olishda qo'shimcha ishchi kuchini jalb etish shular jumlasidandir. Bu yumushlarni bajarishda yollanma mehnatdan foydalanishning qat'ian taqiqlanishi o'zbek dehqonlarining shuro hokimiyatiga bo'lgan ishonchini batamom yo'qotdi.

1918-1920 yillarda paxta siyosatining o'ziga xos hususiyati shundaki, ixtisoslashtirilgan paxtachilik shirkatlari sonini oshirishga katta e'tibor berildi. Bu esa hokimiyat tuzilmalariga yakka xujaliklar ustidan qat'iy nazorat o'rnatishga imkoniyat yaratdi. Shu bois agar 1919 yilda 73 dehqonni birlashtirgan 42 paxtachilik shirkati tuzilgan bo'lsa, 1920 yilda esa 112 ming kishini birlashtirgan 56 ta shirkat mavjud edi. Ammo shu yillar ichida paxta yetishtirish o'sish o'rniga ancha pasaydi, yani 1920 yilda atigi 1,5 mln pud paxta xom ashyosi olindi. 1915-1919 yillar ichida paxta ekish maydonlari 82,3 foizga kamaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, 1920-yilda 1915 yilga nisbatan paxta tolasini 13 barobarga va hosildorlik esa qariyb 12 sentnerga kam bo'ldi. Har desyatina yerdan olinadigan hosil 70-80 puddan 25-30pudgacha pasaydi, paxta tolasining chiqishi 30,5% dan 29% ga tushib qoldi.

Bunday ko'r-korona ish yuritish oxir oqibatda yer oldi sotdisini taqiqlash, sobiq chor amaldorlari, ayrim qishloq xujaligi va sanoat kapitalistik birlashmalarining, shuningdek, yirik mahalliy boylarning yer mulkini musodara qilish; paxtaning hususiy shxslar va firmalar tomonidan xarid qilinishini ta'qiqlash; barcha hususiy korxonalarini, ularning jami imoratlari, asbob-uskunalarini va mol mulki bilan birga milliydashitirish; dehqonlarning saylab quyiladigan yer-suv

qo`mitalarini tuzish, dehqonlarning sinfiy tashkilotlari (kambag`allar qo`mitalari, kambag`allar uyushmasi, qushchi soyuzi)ni tuzish; sotsialistik xujalikni mehnat artellari, kommunalari va sovxozlar tarzida barpo etish; yer tuzish va undan foydalanish tizimini yaratish; paxta va boshqa qishloq maxsulotlariga narx belgilash; paxtachilikni va irrigatsiya shohobchalarini tiklash va rivojlantirish kabi boshqa bir qator ishlar paxta yakka hokimligining qaror topishiga qaratildi. Shunday qilib, mahalliy dehqonlarni ezish siyosati sobiq shurolar hokimiyati davrida izchil amalga oshirildi.

Sovet hokimiyati oktabr tuntarishining dastlabki ko`nlaridan boshlab, paxta yetishtirish va uni ko`paytirish masalasiga alohida e`tibor berdi. Paxtachilik tarmog`i darhol RSFSR Oliy Xalq xujalik kengashi (OXXK) tizimiga kiritildi. "Paxta ta`minot" qumitasi (paxtachilik markazi) paxtachilikdagi barcha tezkor tashkiliy ishlarni o`z zimmasiga olgan boshqaruv mehanizmining muhim bug`ini bo`lib, u RSFSR tuqimachilik sanoati markaziy qo`mitasi (To`qimachilik markazi)ning ta`minot bo`limi- OXXK Bosh qumitasi tarkibiga kirgan edi<sup>1</sup>.

1918-yil 24 martda Turkiston paxtachilik markaziga yuboriladigan tarkib tasdiqlandi. Unga bolsheviklardan V.S.Smirnov, N.I.sundatov, A.N.Latsis, V.G.Gofmayster, I. A.Sevastianov va boshqalar kiritildi. Ular Turkistondagi paxta zaxiralarini aniqlash va markazga tashib ketish ishlari bilan shug`ullandilar.

Markazning Turkistonda 1918-1919 yillar paxta sanoatini va yerni davlat mulkiga aylantirishi Oziq-ovqat ta`minotining harbiylashgan uslubiga muvofiq iqtisodiyotda pasayish holatlarini keltirib chiqardi. Ayniqsa, 1919-yil 4 iyundan boshlab, joriy qilingan "harbiy kommunizm" siyosati Turkistonda iqtisodiy asoratga solishning mustabidlik tabiatini aks ettiradigan o`ziga xos hususiyatlarini namoyon qildi. Hususan, turkiston sovetlarining VIII qurultoyi (1919 yil sentabr-oktabr)da qabul qilingan rezolyutsiyasida "Turkiston bilan Rossiyaning iqtisodiy siyosati qat`ian birgalikda olib boriladi", deyiladi.

Sovet hokimiyati turkiston iqtisodiyoti ustidan o`z hokimiyatini to`liq o`rnatgandan sung paxta yakkahokimligini o`rnatishni yanada jadallashtirdi.

Jumladan, 1920 yil 2 noyabrda qabul qilingan “Turkiston va Ozarbayjon respublikalarida paxta ekinlarini tilash to`grisida<sup>2</sup>”gi dekreti butun mustabid sovet tuzumi davrida dehqonlarni “Tutqunlik”da saqlab, paxta yakkahokimligini yakka tizimiga asos soldi yoki “Turkistondagi mustamlakachilikning butun bir yunalishini oldindan belgilab berdi”<sup>3</sup>.

Dekretning mazmuni va belgilangan tadbirlar guyo turkistonda paxtachilikning rivojlanishiga g`amxurlik qilganday tuyulardi. Ammo, birinchi moddadayoq uning asl maqsadini fosh qiladi. Chunki, barcha tadbirlarni amalga oshirish RSFSR Yer ishlari xalq komissariyatiga yuklatilib, uning nomidan ko`rsatma berilgan edi. “Turkiston va Ozarbayjon respublikalari xalq xujaligi markaziy kengashlari, - deyiladi 7 moddada, faqat topshirgan paxta xom ashyosi xisobiga oziq-ovqat va keng istemol mollari bilan ta`minlashni markaz bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq tashkil etish” qayd etilgan edi. Buning ma`nosi shuki, paxtakorlar paxta va boshqa mahsulotlardan keladigan daromadlarga ega bo`la olmas edilar.

Yana bir moddasida “paxtakor tumanlardagi barcha jamoa va davlat xujaliklarda paxta ekinlarini majburiy ko`paytirishni nazarda tutgan xolda almashlab ekishni joriy qilish” o`tkazilgan edi. Bu esa o`z- o`zidan keyinchalik O`zbekistonda boshqa qishloq xujaligi ekinlarining kamayishi va paxta yakkahokimligining kuchayishiga olib keldi. Dekretning 8 moddasida “Irrigatsiya va paxtaga dastlabki ishlov berih hamda paxta tozalash korxonalari va mussasalarning ishlari harbiylahitirilsin”, deyiladi. Shu bilan birga, vazirliklar va tashkilotlarga majburiy mehnatni tashkil etish va boshqa shu kabi uslublardan unumli foydalanish yo`llari ko`rsatib o`tildi.

Paxtachilikning ahvoli yomonlashib bordi va bu hol markazning manfaatlariga to`g`ri kelmasd. Chunki 1920 yil oxirlarida Turkistonda ishlab

---

<sup>1</sup> Известия ВЦИК. 1918. 26 июля.

<sup>2</sup> Деятельность коммунистической партии и советского правительства по восстановлению и развитию хлопководства в Туркистане (1917-1924гг) Документы и материалы. Т.: Узбекистан. 1986ю Сю 72-73

<sup>3</sup> Сафаров Гю Национальная политека // Три года советской властию Ташкент, 1920. С. 23.

chqiarilgan paxta tolasi zahiralari rossiya to`qimachilik sanoati ehtiyojlarini uchdan bir qismini qondirmoqda edi<sup>1</sup>.

Qishloq xujaligining barcha sohalari o`g`ir ahvolga kelib qolgan bo`lib, ekin maydonlari 1920 yilda 1916 yilga nisbatan 5.9 baravar qisqardi. Paxtaning yalpi miqdori 610 ming tonnadan 31 tonnaga tushib qoldi. Hosildorlik esa nisbatan 30 foizdan iborat bo`ldi. Hususan, paxta tolasini olish 1913 yilga nisbatan 23 baravarga kamaydi<sup>2</sup>.

Sovet hokimiyatining yangi iqtisodiy siyosati (NEP) an`anaviy tartiblarni tubdan o`zgartirishga qaratilgan bo`lsa-da, ayrim masalalarda avvalgi tuzum merosxuriga aylangan edi. Bu ayniqsa, paxta xom ashyosini yetishtirishda yaqqol ko`rinadi. Sovet hokimiyati yangi iqtisodiy siyosati davrida paxta yetishtirishni qo`ldan chiqarmaslik bir tomondan, qishloq xujaligi ekinlari hisobiga chigit ekiladigan maydonlarni muntazam ravishda ko`paytirgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, chorizm qo`llagan uslubdan keng foydalanib, arzon paxta va qishloq xo`jaligi maxsulotlarini mamlakat ichkarisiga tashib ketish dolzarb masala bo`lib qoldi. Ular ishni ikkinchi muommoni hal etishdan boshlashdi. 1921 yilning yanvar oyida markazga junatish uchun 7mln pud paxta tolasi, 372 ming pud lentir, 103 ming pud chaxbuxta tayyorlandi<sup>1</sup>. Buning ustiga, yanada ko`proq va boshqa sanoatbop xom ashyoni junatish uchun qo`shimcha ravishda Yettisuv temir yo`lini qo`rish to`g`risida qaror qa`bul qilindi.

“Harbiy kommunizm” davrida qo`llanilgan usullar asosan, paxta yakkahokimligini yangi iqtisodiy siyosat davri avj oldirildi. 1921 yil paxta xarid qilish va taqsimlashga davlat hukmronligining saqlanib qolishi, paxta xarid narxlarini markazga foydali ravishda o`zboshimchalik bilan belgilanishi, mahalliy to`qimachilik ishlab chiqarishning qattiq nazorat qilish va boshqa bir qator sabablar paxta yetishtirishga salbiy ta`sir etdi. Uning ko`lamini 1922-yil 20 noyabrda turkiston XKS ning paxta qo`mitasi raisi Biryushev “Turkiston paxta qumitasining 1921 yil 1 noyabridan 1922-yil 1- noyabrigacha faoliyati tug`risida”

<sup>1</sup> Хлопководство в СССР и его перспективы. М., 1926. С. 120.

<sup>2</sup> Советский Узбекистан в борьбе за развитие хлопководства. Ташкент, 1949. с 13-14;

gi ma`ruzasida shunday fikr bildiradi: “hokimiyat tuzilmalari markaz chiqargan qarorlarga asoslanib, paxtakor dehqonlarga moddiy yordam to`g`risida ko`p va`dalar berishdi. Ekish davrida va ustirish mavsumida pul va boshqa tovarlar bilan ta`minlash amalga oshmadi”<sup>1</sup>.

Paxta yetishtirishni ko`paytirish borasida davlat hukmronligini yanada mustahkamlash maqsadida 1921-yil 13-sentabrda “paxtachilikni, paxta tozalash sanoati va paxta tozajashni davlat yo`li bilan tashkil etish to`g`risida ” maxsus nizom qabul qilinib, “Paxtakor dehqonlarni ekspluatatsiya qilish hisobiga boylik orttirayotgan olib sotarlar”ga qarshi ko`rashish niqobi ostida ish ko`rildi. Biroq, amalda esa bolshiveklar, bir tomondan, iqtisodiyotning yetakchi tarmogi- paxta sanoatini davlat qo`lida saqlab qolish, ikkinchi tomondan esa O`zbekistonni rossiya to`qimachilik sanoati ehtiyojini qondiruvchi xom ashyo bilan ta`minlab beruvchi asosiy mintaqaga aylantirishni maqsad qilib qo`yishgan edi.

Bundan tashqari, markaziy hukumat iqtisodiy sohaga ma`lum darajada erkinlik berilishiga qaramasdan, balki paxtachilik tarmog`iga davlatning to`liq nazorat etishini ta`minlash maqsadida 1921 yil sentabrida RSFSR OXXK huzuridagi Paxtachilik markazi (Sentr xlopok) ni Bosh paxtachilik qo`mitasi (Glav xlopkom) ga aylantirdi, paxta yetishtiruvchi respublikalarda ham unga Bo`ysunuvchi paxtachilik qo`mitalari tuzildi.

Shu bois paxta ekiladigan yerlar, davlat xujaliklari, urug`chilik va tajriba dalalari, seleksiya markazlari, suniy sug`orish inshootlari, paxta tozalash va boshqa zavodlar barcha asbob uskunalar, materiallar va boshqa Tovar zaxiralari, shuningdek, ularga xizmat qiluvchi barcha muassasalar birga turkiston paxtachilik qo`mitasi ixtiyoriga bereildi. Ammo, bu ishlarni amalgam oshirishda komfirqa, davlat va xujalik rahbarlarining ma`muriy buyruqbozlik bilan ish yuritishi islohotlarni bo`g`ib qo`ydi. Ular yangi iqtisodiy siyosatga o`tilishi bois, Turkistondagi avvalgi mustamlakachilik tajribasini qayta tiklash mumkin, deb hisoblashardi. Shuning uchun ham paxta yakkahokimligini tugatish borasida

---

<sup>1</sup> ЎзР МДА, 41-фонд, 1-руйхат, 1033-иш, 69-70 варақлар.

bo`lib o`ngan tortishuvlarda, ularning asl maqsadi namoyon bo`lmoqda edi. Xususan, bu masala Turkiston kommunistik partiyasining VI s`ezdi (1921 yil avgust) va sovetlarning X qurultoyi (1921 yil, sentabr) qabul qilgan qarorlarda yangi iqtisodiy siyosatga o`tishning rasman yangicha shakli tasdiqlandi<sup>2</sup>.

Bosh paxtachilik qo`mitasi paxtaga davlat hukmronligini asosiy amalga oshiruvchi bo`lib, bu ish ikki yo`nalishda bajarildi:

Birinchisi, boshqa qishloq xo`jaligi ekinlari o`rniga chigit ekiladigan maydonlarni muttasil ravishda kengaytirishni o`z ichiga olardi. Bu siyosatni chor Rossiyasi ham o`z davrida qo`llagan edi<sup>3</sup>. Hukumat rahbarlaridan biri I.E. Lyubemovning “Turkiston yoppasiga paxta maydoniga aylantirilishi lozim, buning uchun g`alla ekiladigan maydonlar nihoyatda qisqartirilishi zarur”<sup>4</sup> degan fikrni hukumat siyosatini aks ettiradi. Ushbu strategik yunalishga sovet tuzumining barcha bosqichlarida qat`ean amal qilindi va O`zbekiston paxta yakka hokimligining qo`rboniga aylandi.

Ikkinchi yo`nalish paxta xarid qilish va taqsimlashga davlat monopoliyasining o`rnatilishi, markaziy hokimiyat tuzilmalarining paxta narxlarini respublikalar manfaatlarini hisobga olmasdan belgilashlaridan iborat edi. Natijada “harbiy kommunizm” davridagi paxtakorlarga qo`llanilgan taktika yangi iqtisodiy siyosat davrida ham o`zgarmasdan qoldi. Haqiqatda esa sovet hokimiyati bir tomondan, paxta majmuyi tarmoqlari ustidan davlat hukmronligini o`rnatish bo`lsa, ikkinchi tomondan, u Rossiya to`qimachilik sanoatini arzon paxta xom ashyo bilan ta`minlash edi.

Turkistonda paxtachilikni yangi iqtisodiy siyosatiga o`tkazishda davlat tayanvhi bo`lgan bosh paxta qo`mitasi jiddiy halaqit beruvchi va nosog`lom Tovar-bozor munosabatlarini vujudga keltiruvchi tashkilotga aylanib qolganligini hisobga olib, uni tugatish zarurligi to`g`risidagi fikrlar o`rtaga tashlandi.

---

<sup>1</sup> Деятельность коммунистической партии и советского правительства по восстановлению и развитию хлопководства в Туркестана (1918-1924 гг.). Ташкент, Фан, 1968. С. 114-134.

<sup>2</sup> Резолюции и постановления съездов Компартии Туркестана (1918-1924 гг.) Ташкент, Фан, 1968. С. 114-134.

<sup>3</sup> Абдуллаев А. Ўзбекистонда совет ҳокимияти янги иқтисодий сиёсатининг амалга оширилиши. Ўзбекистон тарихи 2008, №1 59 б.

<sup>4</sup> Ўша жойда. 39 б

Masalan, iqtisodchi M.Markovich “Sovet hokimiyati paxtachilikni sotsialistik yunalishda tashkil etish “ma`muriy byurokratik” davlat tuzumini tuzib, “qattiy narxlar o`rnatib”, Turkiston paxtachiligining an`anaviy taraqqiyotiga jiddiy zarba berganini, paxtakorlar mehnat mahsuli davlatga sinfiy mafkuraning adolatsiz muqobillik yo`li bilan o`tib ketayotganligini bayon qilib, bosh paxtachilik qo`mitasi va boshqa shu sohaga oid davlat tuzumidagi monopoliyani bekor qilishni hamda “xususiy va tijorat” qoidalari asosida ish yurituvchi davlat monopoliyasidan holis bo`lgan tashkilotni qayta tuzish zaruriyatini talab etdi.

Biroq paxta yakka hokimligini qo`llab-quvvatlovchi markaz shu va shunga o`xshash talablarni inobatga olmadi. Leninga turkistonda o`tkazilgan yig`ilishlarda bildirilgan fikrlar also ta`sir etmadi. 1921 yil 7-11 martda bo`lib o`tgan Turkiston Kompartiyasining VI konferensiyasida ochiq- oydin paxtachilikni pasayishining asosiy sababi – xarid narxlari noto`g`ri ekanligi, bug`doy va paxtadan olinayotgan daromad teng emasligi tanqid istiga olingan edi.

Usha paytda turkiston paxtasi jahon bozoridagi narxdan 2.5 barobar past baxolanardi. Bundan tashqari, bu davrga kelib ichki bozorda bug`doyning narxi 3.5 barobarga oshdi. Paxta ekishga dehqonlarda qiziqish yo`qolishi natijasida xom – ashyo kam yetishtirildi. 1916-yilga nisbatan 1922 yilda paxta maydonlari va hosilning miqdori qariyb 11 barobarga qisqardi. 1921 yilning oxirlarida Turkiston paxtachiligida yo`l quyilgan xato va kamchiliklarni aniqlash uchun markazdan vakil kelishi munosabati bilan paxta yakkahokimligi muhokamasi qizg`in tus oldi. Shu yili 8 dekabrda bosh paxtachilik qumitasi, turkiston kompartiyasi byurosi, to`qimachilik ittifoqi, shuningdek, paxtachilik xujaliklari va unga aloqador tashkilot vakillari yig`ilishida paxtaga davlat monopoliyasini 1922 yil hosilidan va keyinchalik butunlay olib tashlash kerakmi yoki yuqmi masalasi ovozga qo`yildi. Qatnashchilar davlat monopoliyasi qoldirilishi uchun qo`l ko`tarishdi. Shunday qilib, tadqiqotchi M. Q. Hasanov yozganidek, “1921 yil 8 dekabrda bu masalaga umumiy qarash ishlab chiqildi”<sup>1</sup>. Paxatga davlat yakkahokimligi saqlangan holda Bosh paxtachilik qo`mitasi o`z ishini bir oz o`zgartirib, mafkuraviy ta`sirni

kuchaytirib, paxta bozorida o'z hukmronligini yana davom ettiraverdi, shuningdek, muhim xujalik tarmoqlarini qo'lida saqlab qoldi va tarmoqni tiklash uchun hususiy mablag'lar ustidan to'liq nazorat urnatdi. Uning "rahbarligi" va "ko'rsatmasi" siz urug' jamg'armasi, paxta tozalash va yog'- moy zavodlari ish yurita olmas edi. Shuningdek, u ichki bozordagi paxtani narxini belgilar, esa hususiy xujaliklarining imkoniyatlarini cheklab quyishga olib keldi<sup>2</sup>.

Bosh paxtachilik qo'mitasi chigit ekishga kontraktatsiya shartnomalari (maxsulot tayyorlash yuzasidan oldin shartnoma tuzish tizimi) tuzishni ham qattiqqo'llik bilan amalgam oshirdi. Shartnoma paxtani topshiruvchi bilan tayyorlovchi tomonlar o'rtasida tuzilar edi. Kontraktatsiya tuzgan dehqon xo'jaliklari yildan-yilga ko'payib bordi. Xususan, agar 1922 yilda tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari 5200 tani tashkil etgan bo'lsa, 1924 yilda ularning soni 190438 taga yetdi, ya'ni 92 foiz paxtakor dehqonlar Paxtachilik qo'mitasi nilan shartnoma tuzgan edilar. Cigit ekish va mahsulot tayyorlash buyicha tuzilgan shartnomalarga ko'p xollarda amal qilmay, bunak berish, asbob-uskunalar, urug'lik, sanoat va oziq ovqat tovarlari o'z vaqtida yetkazib berilmas edi. Oqibatda, birinchidan, urug' kechikib kelar, mulljallangan maydonlarga chigit o'z vaqtida ekilmas edi, ikkinchidan, iste'mol uchun zarur tovarlar deyarli berilmas yoki va'da-va'daligicha qolardi., uchinchidan vakillarning bo'lar-bo'lmas aralashuvi va ish yuritishdagi qo'polligi dehqonni izzat-nafsigaga tegib, uning ishga bo'lgan ishtiyoqini bo'g'ardi; to'rtinchidan, paxtaga ishlov berish texnikasi, asbob uskuna, ug'it va kerakli miqdordagi suvning yetishmasligi g'uzani usishiga ta'sir qilardi; beshinchidan, dehqonlarni bo'lar -bo'lmasga jalb etish ularning tinkasini qo'ritardi; oltinchidan, dehqon oilasini bo'qish uchun paxta o'miga bo'g'doy va boshqa ekinlarni akishga majbur bo'lardi.

Bulardan tashqari, Bosh paxtachilik qo'mitasi, dehqonlarga bergan qarzini to'liq uzishini talab qilar edi. Shunday bo'lgach, dehqon o'z uyidagi mol-mulkidan ayrilib, qarzini to'lash uchun keyingi hosil uchun olingan urug' zaxiralarini ham

---

<sup>1</sup> Хасанов. М.К. НЭП- 1// Звезда Востока. 1989. № 11. С. 119-119.

<sup>2</sup> ЎзРМДА, 17-фонд, 1-руйхат, 45- ишб 212- варак.

topshirib yuborar edi. Tulov muddati kelganda sovetlarni qo'llab-quvvatlovchi kambag'al va o'rta xol xujaliklar bilan tuzilgan "sinfy birdamlik" ham unutib qo'yilardi.

Oktabr tuntarishidan keyin davlat paxtaning xarid narxlarini arzon qilib belgilagani uchun paxtakor dehqonlar o'zlari uchun iste'mol mollarini olishi qiyinlashib bormoqda edi. Masalan, agar 1919 yilda bir pud paxtani sotishdan kelgan pulga 36 arshin chit olish mumkin bo'lsa, 1923 yilda bu pul, atigi 10 arshin chitga yetardi, xolos.

Bu esa chigit ekish maydonlarining qisqarishi bilan bir qatorda, dehqonlarning noroziligi tufayli, paxtani yetishtirishning kamayishiga olib keldi. Masalan, 1922-yilda 1921 yilga qarganda 1.7 barobar maydonlarga chit kam qadalib, 1920-1921 xo'jalik yillariga nisbatan 1900 ming puddan 1312544 pudni yoki 58746 pudga qisqardi.

Davlat monopoliyasi paxta yetishtirishga tusqinlik qilar edi. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish davrida buni tushungan rahbarlar, olimlar, iqtisodchilar va boshqalar paxtaga davlat monopoliyasini saqlab qolishi tufayli ayniqsa, paxtachilikda raqobat va bozor munosabatlariga halaqit berayotganliklarini bir necha bor o'rtaga tashladilar. Masalan, Turkistonda paxtaga bo'lgan davlat monopoliyasi hamda Turkiston paxtachilik qo'mitasini to'g'atish masalasini yer ishlari xalq komissari S.Asfandiyorov faollik bilan ko'tarib chiqdi<sup>1</sup>.

Bu masala 1921 yil 16 dekabrda RKP (,) VQ Turkbyurosi va TKP MIQ ning qo'shma majlisida qatnashagan Markaz bosh paxtachilik qo'mitasi raisi V.P. Noginning taklifiga muvofiq "paxtaga davlat monopoliyasini saqlash zarur" degan qaror qabul qilindi.

Toshkentdan qaytgan V.P. Nogin, 1922 yil 2 yanvarda RSFSR OXXKi yig'ilishida axborot berdi va paxtaga davlat yakkahokimligini saqlab qolish "o'ta

---

<sup>1</sup> Голованов А.А. Кристьянство Узбекистана: эволюция социального положения. 1917-1937гг. Ташкент: Фан, 1992. Сю 75.

muhim” siyosiy ahamiyatga ega ekanligini qayd etdi. Shuningdek, RSFSR XKS ning 1920 yil 2-va 27 nayabrdagi dekretlarni davom ettirilishi ko`rsatildi<sup>1</sup>.

Yangi iqtisodiy siyosat samara bermayotganligini ayrim markaz rahbarlari ham tushunib yetishdi. Shu bois, 1922 yil 23 avgustdagi Mehnat va mudofaa kengashining “Bosh paxtachilik qo`mitasi ahvoli tug`risida” degan qaroriga muvofiq, u xo`jalik xisobiga o`tkazildi. Ammo, bu qaror ham paxtaga davlat yakkahokimligini tugata olmadi va 1924 yilda chigit ekiladigan maydonlar ko`payib, 315168 desyatinaga yetdi. Shu yili paxtaning miqdori 4250 ming pudni tashkil etdi yoki 1921 yilga nisbatan 13.9 barobar ko`paydi, hosildorlik esa nisbatan gektaridan 6.9 sentnerga o`sd<sup>2</sup>.

Shunday qilib, Islom Karimov ta`kidlaganidek: “... bunday hol avvalo, butun sovet tuzumiga xos bo`lgan markazlashtirilgan usulda rejalashtirish va taqsimlashdek illatlarning ta`siri edi. O`zbekiston iqtisodiyoti asosan, xom ashyo tayyorlashga yo`naltirildi va paxta yakkahokimligi yurtimizdagi vaziyatni og`ir ahvolga olib keldi”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Ўша асар 76-бет

<sup>2</sup> Хлопководство Узбекистана за 50 летю С.29.

## **2.2. Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda paxta yakkahokimligi, uning daxshatli oqibatlari**

Mustabid sovet tuzumining dastlabki kunlaridan boshlab qishloqni sotsialistik xujalikka aylantirish uchun “kommunizmga sakrab o'tish”, “kommunizmga jadal yurish”, “kommunistik jamiyat qurilishini jadallashtirish” kabi shiorlarni amalgam oshirdilar. 1985 yil apreldan esa boshlangan sunggi “qayta qurish” ham yuqoridagi shiorlarning davomi bo'lib, kommunistik mafkuraga xizmat qildi. Bu shiorlar davrida million-million paxta xom ashyosini yaratuvchisi paxtakor dehqonning ma'naviy va moddiy manfaatlarini cheklab qo'yildi. Chunki, 1917 yil oktabr tuntarishidan keyin vujudga kelgan siyosiy va noiqtisodiy xo'jalik yuritishning shakl va uslublari qariyb 74 yil davom etdi.

Markazningiqtisodiy jabhadagi o'zboshimchaligi urush yillarida e'tiborsiz qolgan o'zbek qishloqlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Chunki urush davrida imkon darajada qishloqdan (ozuq-ovqat, xom ashyo, ishchi kuchlari va h.k.)olindi, lekin qishloqqa esa hech narsa berilmadi. Oqibatda qishloq xo'jaligi sovet agrar siyosatiningtobora yangi-yangi zararli illatlari o'zini namoyon qila boshladi. Stalin ma'muriyati kommunizmga jadal yurishdan iborat xayoliy rejalarini ro'yobga chiqarish maqsadida odatdagidek qishloqda ma'muriy tazyiq o'tkazishga zo'r berdi. Jamoa va davlar xo'jaliklaridan davlatga mahsulot yetkazib berishni keskin oshirish talab qilindi, bunda xo'jalik imkoniyatlaridan emas, balki davlat ehtiyojlaridan kelib chiqildi.

Qishloq xo'jaligini yuksaltirish uchun yirik kapital mablag'lar talab qilinardi. Biroq ular yetarlicha berilmas edi. Urushdan keyingi davrda O'zbekistonning agrar ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun umumiy mablag'lar hajmining bor-yo'g'i 7%i ajratildi<sup>2</sup>. Davlatning jamoa xo'jaliklariga “yordami” asosan texnika yetkazib berishdan iborat bo'ldi, bu texnika esa MTSlar tassarufida edi. Shu bilan birga jamoa xo'jaliklari mahsulotlariga belgilangan xarid narxlari urushdan oldin qanday bo'lsa, shundayligicha saqlanib qoldi, vaxolanki, dehqon

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik taraqqiyot yo'li. Xalq so'zi, 2007 yil, 31 avgust.

<sup>2</sup> ЎзРМДА, 90-фонд 480-йиғма жилд, 9-10- варақлар

xo`jaliklari oladigan sanoat maxsulotlarining narxлари esa 20 baravar ortdi. Natijada davlat qishloq xo`jalik maxsulotlarini deyarli tekinga oladigan bo`ldi.

O`zbekiston rahbariyati qishloq iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirishdan manfaatdor edi, shuning uchun ham paxta yetishtirish bilan bir qatorda qishloq xo`jaligining boshqa tarmoqlarini ma`lum darajada bir xil qiymatga ega bo`lgan resurslar bilan ta`minlashga intildi. Xususan, respublika aholisining moddiy ahvolini yaxshilashga yordam beradigan oziq- ovqat ekinlarini ma`lum miqdorda yetishtirisha e`tibor berildi. Biroq bu hol Markazning Paxta yakkahokimligini kengaytirishga qaratilgan imperiyacha yo`liga zid keladi. 1947 yilda O`zbekistonning maxsus xodimlari Moskva “mahalliy vazifalar foydasiga umumdavlat manfaatlarini o`nutib quyish”da aybladi. Markazning deriktiv yo`l-yuriqlariga muvofiq ustunlik faqat paxtachilikka qaratildi. Shuningdek belgilangan rejani bajarish yo`lida milliy rahbarlarga va busiz ham paxtazorlarda og`ir mehnat qilayotgan qishloq mehnatkashlariga nisbatan jazo tazyiqlari kuchaytirildi. Natijada 1952 yilda O`zbekiston davlatga 2 mln. 367 ming t. paxta topshirdi, bu 1940 yildagiga nisbatan deyarli ikki baravar ko`p edi. Biroq bu o`shishga agrar ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi obyektiv sog`lom jarayonlar tufayli emas, balki o`zbek dehqonlarini ayovsiz ishlatish hisobiga erishildi.

Paxta yakkahokimligini mustahkamlashga qaratilgan bu imperiyacha siyosat respublika qishloq xo`jaligining umumiy ahvoliga jiddiy ta`sir ko`rsatdi. Masalan, 50-yillarning boshlarida O`zbekiston ekin maydonlarni urushdan oldingi darajasiga yetkazib bo`lmadi. Don ekinlari yalpi hosili 1940 yildagi 615.1 ming t.dan 443 ming t.ga, uzum 1302 ming t.dan 840ming .t.ga, poliz ekinlari 331.9 ming t.dan 153 ming t.ga tushib qoldi. Ayni vaqtda sabzavodlar hosildorligi gektariga 152 t. dan 73 t. ga, poliz mahsulotlari 84 t.dan 66 t. ga tushib qoldi. Va hokazo<sup>1</sup>.

Paxtadan tobora ko`proq yalpi hosil olishga erishish siyosatining yaqqol ifoasi yangi o`zlashtirilgan yerlarda paxta yetishtiradigan xo`jaliklarni jadallik bilan tashkil etish bo`ldi. Ittifoq deriktiv organlari 1056 yil 6-avgustda “O`zbekiston SSR va Qozog`iston SSR da Mirzachulning qo`riq yerlarini

o`zlashtirish tug`risida”gi qarorni qabul qilgandan keyin paxtachilik xo`jaliklari tashkil etish mo`ljallangan edi<sup>2</sup>. Makur qarorga muvofiq 162 yilga kelib Mirzacho`lda 300 ming gektar qo`riq yerlarlar o`zlashtirilishi va 34 paxtachilik davlat xo`jaliklari tashkil etish muljallangan edi. Qo`yilgan vazifalarning bajarilishini ta`minlash uchun O`z SSR ministrlar kengashi huzurida Mirzachulni so`g`orish va o`zlashtirish bo`yicha boshqarma— “Glavlagolodnostepstroy” tashkil etildi. “Glavlagolodnostepstroy” negizida irrigatsiya va sovxozlar qo`rilishi bo`yicha O`rta Osiyo Bosh boshqarmasi – “Glavsredazirsovxozstroy” yuzaga keldi.

Mirzacho`l bilan birgalikda markaziy Farg`ona yerlari ha faollik bilan o`zlashtirildi. Surxondaryo, Zarafshon vohalarida, Amudaryo etaklarida ham yirik irrigatsiya-melioratsiya ishlari amalga oshirildi. Qarshi va Sherobod cho`llariga hujum keng avj oldirildi.

Irrigatsiya ishlarining qizg`in tus oldirilishi 1955-1959 yillarda 160 ming ga. Yangi yerlarni ishga tushirishga imkon berdi. 1965-yilda O`zbekistonning ekin ekiladigan maydonlari 350ming ga.ga ko`paydi, shu jumladan, so`g`oriladigan yerlar 200 ming ga.ga ortdi. Yirik qo`riq va bo`z yerlar massivlarining qishloq xo`jalik oborotiga kiritilishi respublikada paxta ekin maydonlarini kengaytirishga yordam berdi. Natijada paxta yetishtirish hajmi 1953-yildan 1964-yilgacha 2525,5ming t.dan 3671,4ming t.ga yetdi. Lekin hosildorlik pasayib ketdi. Masalan, 1956 yilda respublika bo`yicha har gektar yerdan o`rta hisobda 22.0 ts. paxta hosili olinganbo`lsa, 1962-yilda u pasayib, 19.2 ts.ni tashkil qildi<sup>3</sup>. Ko`pgina xo`jaliklarda xosildorlik bundan ham kamroq bo`ldi.

Vaqt masofasidan turib nazar tashlaganda, shu narsa yaqqol ko`zga tashlandiki O`zbekistonda ham, umuman, butun SSSR da bo`lganidek, qo`riq yerlarga ommaviy ravishda qilingan hujum rejalashtirish vaqtida mo`ljallangan natijalarni bermadi.

---

<sup>1</sup> ЎзРМДА, 1916 –фонд, 10-рўйхат, 4112-йиғма жилд, 110-115-варақлар

<sup>2</sup> ЎзРМДА, 1916 –фонд, 10-рўйхат, 4112-йиғма жилд, 140-143-варақлар.

<sup>3</sup> ЎзРДМА, 2743-фонд, 1-рўйхат, 2670-йиғма жилд, 10-12-варақлар.

Texnika siyosatidagi kamchiliklar tufayli vaziyat yanada chuqurlashdi. Paxta yetishtirish ustuvor hisoblangani sababli direktiv organlar paxtachilikni kompleks mexanizatsiyalashga asosiy e`tiborni qaratdilar. Boshqa taroqlar esa e`tibordan chetda qolaverdi. Natijada, sabzavotlar ekishning mexanizatsiyalash darajasi faqat 24% ni, pichan to`plashda 24%ni, chorvachilik fermalarida va qoramollarni bo`rdoqiga boqish majmualarida 39%ni, parrandachilikda 42%ni tashkil etdi va hokazo<sup>1</sup>. Bu yillarda O`zbekiston qishloq xo`jalik mehnatkashlarining 90% I asosan jismoniy mehnat bilan shug`ullanardi. Respublikaning ilmiy-texnikaviy imkoniyatlaridan esa yetarli darajada foydalanilmadi.

Agrar sohani kadrlar bilan ta`minlash borasida ham muommolar keskinligicha qolaverdi. Yuqorida sanab o`tilgan yutuqlarga qaramasdan, partiyaning kadrlar siyosatidagi turg`unlik xollari tobora rasmiy tus olib bordi. Odatda kadrlar masalasidagi qo`pol xatoliklar haqida lom-mim deyilmas yoki ular mahalliy boshqaruv organlarining tashkiliy ishidagi "kamchiliklar" deyilirdi, xolos, xo`jaliklarning amaliy faoliyatidagi xato va kamchiliklar ular ma`muriyati hamda mutaxasislarining samarali ishlamaganligi oqibati deb ko`rsatilardi.

Statistikaning ko`rsatishicha, 0 yillarning boshlarida jamoa xo`jaliklari raislari, davlat xo`jaliklari direktorlari, bosh mutaxasislari, agronomlari, veterinariya shifokorlari va zootexniklar orasida amaliyotchilar soni 1,3% dan 5,7% gacha edi, jamoa xo`jaliklaridagi muxandis-texniklarning 36,3%, dehqonchilikdagi brigade boshliqlarining tegishli ravishda 74,7 va 54,5%, chorvachilikdagi ferma mudirlari va brigada boshliqlarining 73,1 va 52,4% i amaliyotchilardan iborat edi<sup>2</sup>.

Haqiqatan, so`nggi qayta qurish davrida ham rejaga sig`inish va har qanday yo`l bilan uni bajaish ustuvor qilib qo`yildi. Paxtachilikda ishlab chiqarish harajatlarini holisona Hisob kitob qilish, tahlil va nazorat etish, yalpi hosilni ko`paytirish bahonasida inkor etildi. Natijada, Paxtachilikda Elektr-

---

<sup>1</sup> Народное хозяйство Узбекской ССР в 1985 г... С.40.

<sup>2</sup> «Правда востока», 1986 в 3 марта.

energiya, yoqilg'i-moy, mashina va agregatlar, mehnat resurslari, tayyor mahsulot va moliyaviy imkoniyatlar o'z xolicha ishlatildi. Chunonchi, 9.6% moddiy harajatlar paxta xom ashyosini qariyb 95% tannarxidan iborat bo'ldi.

Ishlab chiqarishdagi noreallik oqibatida paxtakor dehqon rejani bajarish yo'lida kuniga 12-16 soatlab, dam olish kunlariyu bayram kunlari ham mehnat qildi. Chunki ish haqi to'lash tizimida bajarilgan ishlarning hajmi va sifatiga to'lanadigan ish haqi orasida iqtisodiy bog'lanish yo'q edi. Masalan, mutaxasislarning hisoblashicha, dehqon g'ozasini chopiq qilish davrida kunlik normasini bajarish uchun o'g'ir ketmonni 50 ming marta ko'tarib taslash lozim bo'lib, faqat, 159 marta yerga ketmon o'rgani uchunl tiyanga ega bo'lgan. Aholi jon boshiga oziq-ovqat islohotlari iste'mol etish esa yildan-yilga kamayib borgan. Masalan, 1980-1987 yillarda go'sht va go'sht maxsulotlari tegishli ravishda 31kg dan 26 kg ga, sabzavot va poliz mahsulotlari 177 kg dan 172 kg ga, kartoshka 29 kg dan 26 kg ga tushib qoldi va boshqa istimol maxsulotlarini yetishtirishda ahvol bundan ham past bo'ldi. Respublika aholisiga 1988-yili rejadagi 51,6 ming tonna poliz mahsulotlari, 126,4 ming tonna ho'l meva, sabzavot poliz mahsulotlari yetishtirish 17-23 %ga kamaydi. Umuman, Ozbekiston ho'l meva, 132,9 ming tonna uzum yetkazib berilmadi yoki ho'l meva, sabzavot bilan o'z aholisi ehtiyojlarini 57 %ga qondirib, sobiq Ittifoq buyicha 14-o'rinda bo'lgan.

Qishloq aholisi O'zbekistonning shaharlarida yashovchilarga qaraganda 2,5 barobar kam yorma va dukkakli maxsulotlarni, kartoshkani qariyb 3 marta, sut va sut maxsulotlarini 3,5 marta, sabzavot va polizni 25 kg kam iste'mol qilgan. Sobiq Ittifoqqa nisbatan esa o'z iste'molida g'oshtni 5,6 barobar, sut maxsulotlarini -3, tuxum-3,5, kartoshka- 4,7, baliq mahsulotlarini- 21,6 barobar kam ishlatgan.

Paxta yakkahokimligining zo'ravonligini oqlash va o'zbek xalqini mafkuraviy jihatdan karaxt qilib qo'yish maqsadida Markaz siyosatdonlari O'zbekiston va boshqa ittifoqdosh respublikalardan iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan orqada qolayotganligini e'tirof etib, uni jadal rivojlantirish zarurligini ta'kidlar edi. Biroq "aldagani bola yaxshi" naqliga amal qilib, byudjetdan mablag' ajratishda markaz manfaatlari ustun turar edi. "O'lganning ustiga tepgan qilib", Markaz mafkuraviy

ta'sir ko'rsatish uchun turli xil aldash va qo'rqitish vositalaridan foydalanib, jamoatchilik ongiga "paxta – O'zbekistonning baynolminal burchi" degan fikrni singdirishga harakat qildi va shu asosda suniy shakllantirilgan paxta yakkahokimligi O'zbekiston yerini harob, elini g'arib qildi. Masalan umumiy daromadni aholi jon boshiga hisoblaganda 1989 yil sobiq Ittifoqda 125 so'mdanga, Boltiqbo'yi respublikalarida 200 so'mdanga, O'zbekistonda 71 so'mdanga to'g'ri kelgan. Aslida aholi jon boshiga topgan daromadi 71 so'mga yetmaganlar. Respublika aholisining qariyb 40 %ini tashkil etgan. Aniqroq qilib aytsak O'zbekiston respublikasi prezidenti I.A. Karimov o'zining "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" asarda shunday deydi : "Statistikaning ko'rsatishicha, bugungi kunda O'zbekistonda aholi jon boshiga hisoblaganda daromadi 75 so'mdan oshmaydigan 8 mln 800 mingga yaqin kishi yashab turibdi, bu esa aholining 45% ni tashkil etadi. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, hozirgi paytda kun kechirish uchun kamida 85 ming so'm zarurligini e'tiborga oladigan bo'lsak, ana shunda odamlar qanday qiyinchilik bilan, uchma-uch yashab kelayotganiga o'zingiz baho berishingiz mumkin.

Respublikadagi satsial ahvol, odamlarning satsial ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish mutlaqo qoniqarsiz. Qishloq aholisining atigi 5% kanalizatsiya va vodoprovot bilan, sal kam 50% ichimlik suvi bilan, 17% tabiiy gaz bilan ta'minlanganini normal ahvol, deb hisoblash mumkin emas"<sup>1</sup>.

Noiqtisodiy ruxda qabul qilingan markazni qarorlaridan biri, bu 1960 yillar boshida aholi ixtiyoridagi chorva mollarining chegaralab qo'yilishidir. Ya'ni har bir oilada to'rtta mayday tuyoqli va bir bosh qoramol hamda ma'lum hisobdagi parranda boqish belgilandi.

Paxta yakka hokimligini yanada rivojlantirish maqsadida kommunistik mafko'raviy tazyiq ku'chaytirilib, 1972 yil 30 mayda O'zbekiston hukumati "Respublika jamoa xujaliklarida capital qo'rilishni yaxshilash va xutor tizimini tugstish tadbirlari to'g'risida"gi qarorni qabul qilishga majbur bo'ldi va 1973-1975

---

<sup>1</sup> Islom Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2011 yil, 47-49-betlar

yillar ichida 250 ming qishloq oilasini o'z ichiga olgan 3 mingdan ortiq qishloqlar yo'q qilindi. 1975 yildan boshlab jamoa xo'jaliklarida uy-joy qo'rish kooperativlari ular ananaviy o'zbek qishloqlarini bo'zilisiga o'zlarining salbiy hissalarini qo'shdilar. Masalan qishloqda ahli jon boshiga imorat qurish 1970 yildagi 0,38kv. metrdan 1985 yili 0,2 m<sup>2</sup> ga tushib qoldi. Shaxsiy uy-joy qurilishida esa bu holat 0,2 dan 0,16m<sup>2</sup>ga ega bo'lgan va O'zbekiston uy-joy bilan ta'minlashni darajasiga ko'ra sobiq ittifoqda 12-o'rinni egalladi.

Ma'lumki, tabiiy boyliklarini yanada ko'proq o'zlashtirish maqsadida marka zga qarashli O'zbekistonda bir qator shaharlar (Navoiy, Uchquduq, Zarafshon va boshqa)ni barpo etdi vbyudjetdan uy-joy qurish uchun ajratilgan mablag'lar, asosan, bu sohaga yunaldirildi. Qishloqlarda esa turarjoy qo'rilish o'z holiga tashlab qo'yildi yoki aholining daromadi hisobiga qo'rish yo'lga qo'yildi. Shuning uchun ham ko'pgina uylar xom g'isht va paxsadan oddiy usulda qo'rildi, ularda inson uchun zaruriy qulayliklar yaratilmadi yoki kanalizatsiya, issiq va sovuq suv hamda foydalanish imkoniyatidan mahrum etildi.

Bevosita aholi turmushiga sezilarli ta'sir etgan mafkuraviy tazyiqning yana biri shuki, mustabid sovet tuzumining oxirgi yillarida shaxsiy tomorqa yerlarining yanada kamaytirilishidir. Oqibatda, 1970 yil o'rtalariga kelib shaxsiy tomorqaning o'rtacha hajmi 13 sotixdan avval 10, keyinchalik 8 va 4 sotixga tushirildi. Shuning uchun ham qishloq oilasi bitta sigirni ham boqishga imkon topa olmadi yoki bitta molni boqish uchun tomorqasiga aksariyat oilalar makkajuxri va beda ekishga majbur bo'ldilar. Bundan tashqari, soyasi tushmasin deb o'rik, olma va boshqa mevali daraxtlarni ham kam ekishdi. Darhaqiqat, shahsiy yordamchi xo'jaliklar O'zbekiston aholisining istemoldagi 61% urug'li, 10% rezavor mevalarni, 17% yong'oqni 80% subtropik va 2,5% tsitrusli mahsulotlarni yetkazib bergan. Shuningdek, aholi jon boshiga 29 kg go'shtni 20,7 kg ni, 187 kg sut va sut mahsulotlaridan 132 kg ni tuxumning 33 %ini ta'minlagan.

Ayniqsa, qishloq aholisining kanalizatsiya va vodoprovod bilan ta'minlashning atigi %ini ichimlik suvi bilan ta'minlashi salkam 50 % ni, tabiiy gaz bilan ta'minlashni 17%ni taskil etar edi. Aholining uy-joy sog'liqni saqlash,

madaniyat maishiy xizmat obektlari, maktablar bolalar bog`chalari va hokazolar bilan ta`minlash ishlarida siljishlar sezilmadi. Vaholanki, aholining ko`pchilik qismi qishloq joylarda istiqomat qilar edi.

O`zbekiston hududida aholi sonining o`sinh denamikasi (ming kishi hisobida)

Ko`rsatkichlar	yillar			1991 yilda 1989 yilga nisbatan o`zgarishi	
	1989	1990	1991		

Bundan tashqari, xo`jalik va madaniy mayishiy mahsulot ishlab chiqarishning ba`zi turlari ham kamaygan. Misol uchun 1985 yilda 1970 yilga nisbatan 8% ga gaz plitasi, chinni, spool va shisha buyumlari, hatto o`quvchilar uchun daftarlar ham 10%ga kamaygan. Shuning uchun ham aholi jon boshiga Tovar almashinuviga ketgan harajat O`zbekiston buyicha sobiq Ittifoqda 14 o`rinda edi. Maishiy xizmat ko`rsatishga pul sarfi qo`yidagicha bo`lgan: Rossiyada 39 so`m, Ukrainada 41 so`m, Belarussiyada 49, Estoniyada-65, Latviyada-51, Litvada-50, Gruziyada-48, Qozog`istonda-34, dan iborat bo`lib O`zbekistonda esa 25 so`mni tashkil etgan va sobiq Ittifoqda 15-o`rinni egallagan.

O`zbekiston o`zining iqtisodiy salohiyati buyicha sobiq Ittifoqda 3-o`rinda bo`lishiga qaramasdan, aloqa xizmati bo`yicha 15-o`rinda, madaniy xizmat 14, maishiy xizmat va uy-joy xizmati buyicha 13 o`rinda edi. Ayniqsa, O`zbekiston qishloqlarida madaniy –maishiy xizmat ko`rsatish yildan-yilga pasayib, kolxozlarda 1975 yildagi 7%dan 1985 yil 4,9% ga, tushib qolgan. 1980-yillar oxiriga kelib O`zbekistonda qariyb aholining 45%i kambag`allashib, ular ishsizlikka giriftor etilgan, ya`ni mehnatga qobilyatli aholining rasman ish bilan band bo`lmagan qismi (16-29yoshgacha) 1970 yilda 33,5 %, 1979 yilda 46,7 %, 1986 yilda 50%dan ziyodni tashkil etgan.

Shunday qilib, sovet mustabid tuzumi tomonidan asorat solish, ma`naviy va moddiy qaramlikni kuchaytirish siyosati, Markaz tomondan amalga oshirilib

kelingan O`zbekistonda paxta yakkahokimligini rivojlantirish sohasidagi ustuvor yo`l –yuriqlar va madaniy siyosati milliy manfaatlarga muvofiq kelmasligi halikati oqibatlariga olib keldi. Markaz hukmron doiralarning O`zbekiston iqtisodiyotidagina emas, balki o`zbek xalqi ijtimoiy siyosiy va madaniy hayotiga ham putur yetkazdi. Zero, O`zbekiston aholisining turmush darajasi va uning ijtimoiy ta`minotiga ko`ra, o`tgan asrning 80 yillar oxirida eng qoloq respublikalardan biri bo`lgan edi. Bu achchiq haqiqat edi. Biroq, biz bugungi kunda bu tarixiy bilish bilan bir qatorda, undan saboq chiqarib, uni anglash orqali mustaqillik qadrini mustahkamlamog`imiz zarur.

### **III.BOB. O'ZBEKISTONDA PAXTA YAKKAHOKIMLIGINI KELITIRIB CHIQRARGAN DAHSHATLI HOLATLARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA TADBIRLAR.**

#### **3.1. Shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining ahvoli va uni yaxshilashga qaratilgan choralar.**

XX asrning 70-80 yillarida mamlakatda kolxoz ishlab chiqarishi salbiy oqibatlarga olib keldi, uning natijasida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keldi. Bu, ko'p jihatdan omillarga yetarli baho bermaslik, qishloq xo'jaligiga rahbarlik qilishdagi xatolar, turli suyeiste'molchiliklar tufayli sodir bo'ldi. Qishloq xo'jaligi ekstensiv xarakter kasb etdi, suv resurslari va texnikadan qoniqarsiz foydalanildi. Dehqonchilik va chorvachilikning ko'plab tarmoqlarida texnika keltirilganiga qaramay, qo'l mehnati ko'paydi. Respublikada mashina traktor parki eskirdi, ko'pgina mashina turlari bizning sharoitga to'g'ri kelmay qoldi. Oqibatda mehnat samaradorligi pasaydi, mahsulot tannarxi oshdi, ishlab chiqarish rentabelligi tushib ketdi. Asosiy qishloq xo'jaligi bo'lgan paxtachilik, uning maydonlarining yildan yilga ko'payib borishi oqibatida qishloq joylarida tomorqa xo'jaliklarining salmog'i kamaya boshladi. Shu davrda respublikada, ayniqsa qishloqlarda 240000 oilaning yeri bo'lmagan, 1 million 800 mingdan ko'proq hovli esa uy-joy qurulishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun kengaytirishga juda muhtoj edi<sup>1</sup>.

Paxta yakkahokimligi tufayli uylarning ostonasigacha chigit ekilar edi. Uning natijasida xalqimizning qadimiy dehqonchilik va chorvachilik madaniyati rivojlanmay qoldi. Respublikadagi bunday ahvolni I.Karimov shunday baholaydi: "Tang qoladigan yeri shundaki, qishloqlardagi har besh xonadonning birida birorta ham chorva mol, 37 foizidasigir, yarmisida qo'y boqilmayapti. Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlarida esa ahvol yana ham mushkul"<sup>2</sup>

Oqibatda aholi o'rtasida go'sht mahsulotlari, ho'l meva sabzavot ekinlari iste'moli pasayib ketgan. Statistik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistonda asosiy mahsulotlari iste'moli ittifoq darajasidan ancha past bo'lgan. Chunonchi, bizda

<sup>1</sup> Карамов М, Муллабоев Т, Ахвол қачон ўнгланади? (Совет Ўзбекистони газетаси, 1989 йил 15-ноябрь)

<sup>2</sup> Совет Ўзбекистони газетаси, 1989 йил 23-август

go'sht va go'sht mahsulotlari aholi jon boshiga 29-30 kg, ittifoqda 62-64 kg, ho'l meva va sabzavot mahsulotlari iste'moli bizda 170-173 kg, ittifoqda esa 260-270 kgdan to'g'ri kelgan<sup>1</sup>. Bu hol yildan yilga pasayib boravergan.

**Aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol etish, kg hisobida**

№	Mahsulotlar	1980	1985	1986	1987
1	Go'sht va go'sht mahsulotlari	31	31	26	29
2	Sut va sut mahsulotlari	185	180	176	190
3	Baliq va baliq mahsulotlari	4,4	5,0	4,9	4,7
4	Shakar	21,8	21,8	22,2	22,7
5	Sabzavot va poliz mahsulotlari	116	107	98	95
6	Non mahsulotlari	177	171	172	217,2

Yurtimizda 1989 yil 17 avgustda «Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta'minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida» qaror qabul qilindi. Qarorda qishloqda yashovchi har bir kishiga o'rtacha 25 sotixdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan edi<sup>2</sup>.

Bu boradagi amaliy ishlar natijasida 1989–1990 yillarda bir yarim milliondan ko'proq oilaga qo'shimcha yer ajratildi, 700 ming oilaga yangi tomorqa yerlari berildi.

Bugun to'la ishonch bilan aytish mumkinki, bu murakkab masalaga ana shunday oqilona yondashuv tufayli O'zbekiston bo'yicha ming-minglab odamlar uy-joyli, ishli bo'ldi, bozorlarda mahsulot ko'payib, narx-navo arzonlashdi, eng muhimi, ijtimoiy keskinlikning oldini olishga erishildi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Аминова Р.Х. Қайта қуриш шароитида Ўзбекистонда социал ривожланишнинг долзарб муаммолари. Т., «Фан», 1991, 26 бет

<sup>2</sup> I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" T.2011 34

<sup>3</sup> Абдуллаев А. «Ўрта Осиёда пахта яккахокимлигининг пайдо бўлишидаги илк босқичлар». Услубий кўлланма. Тошкент. 2000.

Bundan tashqari, yuz minglab gektar sug'oriladigan yer texnik ekinlar oborotidan chiqarildi, paxta yetishtirish rejasi 700 ming tonnaga kamaytirildi. Bu – paxta yakkaxokimligini bartaraf etish yo'lidagi dastlabki, ammo o'ta muhim amaliy qadam edi.

Prezidentimiz qishloq joylarida aholi uchun tomorqa yerlarini ajratishni kengaytirish masalasiga ancha keng qarab, ushbu tadbir orqali ko'plab muhim masalalarni hal etishni ko'zda tutgan edi. Jumladan:

Oziq-ovqat dasturini bajarish. Shaxsiy xo'jalikdagi yerning bir gektari jamoat sektoridagiga nisbatan to'rt barobar ko'p samara beradi. Shaxsiy yordamchi xo'jalikning bir gektaridan olinayotgan samara 12,5 ming so'mni, ijtimoiy sektorda esa atigi salkam uch ming so'mni tashkil etadi.

Respublikada haydaladigan yerlarning atigi 5 foizi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga berilgan, ular qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining to'rt dan bir qismini ishlab chiqarishmoqda. Yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotining 26 foizi, shu jumladan, go'shtning 49 foizi, sutning 65 foizi, junning 66 foizi va sabzavotning 43 foizi shaxsiy tomorqalar hissasiga to'g'ri keladi. 1990 yilning o'zida yakka xo'jaliklarda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotining umumiy hajmi 300 million so'mdan oshdi;

2) Uy-joy dasturini hal etish. Yakka tartibda uy-joy qurish o'z salmog'iga ko'ra Uy-joy dasturida 60 foizdan ko'proqni tashkil etib, o'sha davrda bu ko'rsatkich 89-90 foiz atrofida bajarilgan. Aholiga yer uchastkalari, pul ssudalari va zarur qurilish materiallari ajratib berish mazkur jarayonni ancha tezlashtiradi;

3) ishsizlik muammosini hal etish. Masalan, Farg'ona viloyatidagi mavjud 149 ta jamoa va davlat xo'jaliklarining har birida aholi bilan shartnoma asosida uy-joy quruvchi 50-60 kishilik qurilish brigadasining tuzilishi evaziga 7,5 ming kishini ish bilan ta'minlash mumkin. Xorazm viloyati xo'jaliklarda g'isht, duradgorlik buyumlari va boshqa narsalar tayyorlaydigan yordamchi korxonalarining bunyod etilishi qurilish materiallari taqchilligini bartaraf etish bilan birga uch yil mobaynida ishlab chiqarishga qo'shimcha tarzda 2,5 ming kishini jalb

etish imkonini berdi. Bu odamlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishning to'g'ridan-to'g'ri yo'lidir;

4) ayollarning ish bilan bandligi muammosini hal etish. Ayollar ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lmagan aholining anchagina qismini tashkil etib, ko'p bolali oilalarda ular bolalar tarbiyasi, ro'zg'or yumushi bilan band. Ayollarning o'z tomorqalarida xo'jalik bilan rasmiylashtirilgan shartnoma, mehnat staji hisoblash va keyinchalik pensiya tayinlash asosida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishi ular oilalari manfaatiga mos keladi;


5) ijtimoiy siyosiy barqarorlik masalasini hal etish. Ishsizlik, bekorchilik jamiyat uchun zararli xatti-harakatlarga, jinoyatlar sodir etilishiga sabab bo'ladi. Shunga ko'ra, aksariyatining kasb-hunari yo'q, mehnat qilish ko'nikmasiga ega bo'lmagan yoshlarga yer uchastkalarining ajratib berilishi ularni mehnat qilishga rag'batlantiradi, yoshlarda yer sohibi hissi, mehnat ko'nikmalari shakllanadi. O'sha davrda respublika qishloqlaridagi har besh xonadonning birida birorta ham chorva mol, 37 foizida sigir, yarmisida qo'y boqilmaganligi mazkur muammoning dolzarbligini ko'rsatadi.

Prezidentimiz o'sha davrda qishloq joylarida istiqomat qilayotgan aholining turmush darajasi nisbatan pastligi, yashash sharoitining og'irligi, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdagi qiyinchiliklarni hisobga olgan holda muhim bir taklif – har bir oilani sigir bilan ta'minlash masalasini ko'tarib chiqdi. Ushbu tadbirni uzoqqa cho'zmay, 1991 yilning o'zida qishloqda yashovchi barcha oilalarni sigir bilan ta'minlashga erishishning quyidagi yo'llarini ko'rsatib berdi:

- mol sotib olish uchun maxsus kredit berish;
- jamoa podalaridan har bir oilaga buzoq topshirish sharti bilan, imkoni bo'lsa, hatto shu shartsiz ham tekinga sigir berish.

Mamlakat aholisining farovonligini oshirish va mehnatkashlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilishning samarali kafolatlari haqida so'z ketar ekan, quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tish joiz. O'zbekiston Prezidentining "Jumhuriyat aholisi shaxsiy xo'jaliklaridagi mollar va parrandalarni yem-xashak bilan ta'minlash va ularga chorva mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish to'g'risida"

1990 yil 10 may Farmonini bajarishga qaratilgan qator qarorlari qabul qilindi. Qarorda 1990 yilning 1 iyulidan boshlab jamoa va davlat xo'jaliklari aholiga sotadigan pichan va shirali ozuqalarni yem-xashak tayyorlash rejasiga qo'shib hisoblay boshladilar. 1990 yilda shaxsiy xo'jaliklarga sotish uchun davlat resurslaridan 400 ming tonna omixta yem va 60 ming tonna kunjara, 75 ming tonna chigit po'stlog'i, 3,8 ming tonna puch chigit va 100,9 ming tonna pivo chiqitlari ajratildi. Jamoa va davlat xo'jaliklariga ular aholiga sotadigan pichan va shirali ozuqalarni yetishtirish va tayyorlashga qilgan sarf-xarajatlarning 50 foizi to'landi<sup>1</sup>.



Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu va shunga o'xshash tadbirlarning hammasi respublika aholisiga, eng avvalo, qishloq ahliga juda ma'qul bo'ldi. Darhaqiqat, shaxsiy yordamchi xo'jaliklar uchun va yakka tartibdagi uy-joy qurish uchun berilayotgan yerning ko'paytirilishi, shu maqsadlar uchun ssudalarning va qurilish materiallarini sotishning ko'payishi shu tadbirlar sirasiga kiradi<sup>2</sup>.

30-yillardan boshlab O'zbekiston oldiga qo'yilgan sobiq Ittifoqning paxta sohasidagi mustaqilligini ta'minlash vazifasi katta mashaqqat bilan hal qilingach, natijada vujudga kelgan paxta yakkahokimligi qishloq xo'jaligining tub maqsadlariga xilof ravishda yuqoridan zo'rlab o'tkazib kelindi. Buning oqibatida esa:

<sup>1</sup> Шарипов Р.Ш. Ижтимоий ва иқтисодий кафолатлар. – Т.: “Ўзбекистон”, 1991. – 7–8-бетлар.

<sup>2</sup> I.A.Karimov “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”T.2011 35 bet

- respublikada go'sht va sut yetishtirish imkoniyatlari kamayib ketdi;
- respublikaning ko'pgina hayotiy muhim manfaatlariga ziyon yetdi;
- ilmiy asoslangan almashlab ekishlar buzildi;
- yerning tinka-madori qurib, hosildorlik mutassil ravishda pasayib bordi;
- suv manbalarining imkoniyatlari tobora kamayib bordi.

Ushbu holatlarning qishloq xo'jaligiga halokatli ta'siri natijasida respublikada oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish cheklab qo'yildi va aholini shu mahsulotlar bilan ta'minlash muammolari keskinlashdi.

Shunday qilib, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishdagi xatolar va yaroqsiz yondashuvlar, xalq xo'jaligining tuzilishida, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishda yo'l qo'yilgan katta-katta xatolar va nomutanosibliklar og'ir oqibatlarga olib keldi.

Respublikamiz aholisi salmoqli qismining qishloq joylarida istiqomat qilishi, iqtisodiyot tarkibida qishloq xo'jaligining yetakchi o'rin tutishi mazkur tarmoqni rivojlantirish, undagi uzoq yillar davomida vujudga kelgan muammolarni hal qilish zaruratini keltirib chiqardi. Shunga ko'ra, mamlakatimiz rahbari o'sha davrda respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasidagi mulohazalarni ilgari surib, amalga oshirilishi zarur bo'lgan bir qator ishlarni belgilab berdi. Jumladan:

- respublika agrar sektori iqtisodiyotning shunday bo'g'iniki, O'zbekistondagi muammolarning aksariyatini ana shu bo'g'inga tayanibgina hal etish mumkinligi;
- respublikaga Markaz tomonidan zo'rlab qabul qildirilgan paxta yakkahokimligiga qarshi izchillik bilan kurash olib borish zarurligi;
- paxta xomashyosini respublika ichida qayta ishlashni yo'lga qo'yish. Bunga erishilgan holatda dehqonlar tomonidan gektar boshiga olinayotgan 2200 so'm daromad paxtani to'liq qayta ishlash natijasida 18-20 ming so'mga yetishi, ya'ni o'n barobar ko'p daromad hamda yuz xilga yaqin mahsulot olinishi mumkin;
- paxta xom ashyosidan samarali foydalanish, ayni paytda bozorga faol ta'sir ko'rsatish yo'llarini o'rganish lozim. Hatto, g'o'zapoya, shrot, lintdan to'g'ri foydalanib, amaldagi daromad hajmini 3-5 barobar ko'paytirish mumkin;

- paxtachilikda almashlab ekishni joriy etishga asoslangan ilmiy yo'ldan borish. 1991 yilda paxta tolasi uchun davlat buyurtmasi darajasini yetishtirilgan mahsulotning yarmidan oshirmaslik hisobiga rejani 100 ming tonna kamaytirish vazifasining qo'yilishi paxtadan bo'shagan yerlardan odamlarning dolzarb ehtiyojlarini qondirish, shu jumladan, chorvachilik mahsuloti yetishtirishni kengaytirish uchun foydalanish imkonini yaratdi;

- aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun oziq-ovqat kompleksini ustun darajada rivojlantirish. 1995 yilgacha meva, sabzavot mahsulotlari yetishtirishni 2 barobardan ziyodroq ko'paytirishni ko'zda tutuvchi asosli dastur ishlab chiqildi;

- qayta ishlash sanoati korxonalarini qurilishini jadallashtirish. 1995 yili O'zbekistonda 300 ta mo'jaz sex qurish ko'zda tutiladi. Bu esa oziq-ovqat mollari resurslarini ancha ko'paytiradi hamda aholini bu mollar bilan ta'minlashni yaxshilaydi.

- qishloqning ijtimoiy hayotini qayta qurish, qishloqni qashshoqlikdan qutqarish, qishloq xonadonini badavlat qilish yo'lida ish olib borish.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligini rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda yer va suv masalasiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, bunda quyidagi jihatlarni diqqat markazida tutish hamda har tomonlama inobatga olish muhimdir:

- respublikada sug'oriladigan yerlar qishloq xo'jalik mahsulotining 95 foizini berishini hisobga olib, yer va suv muammosini birgalikda hal etish;

- yangi yerlarni o'zlashtirish amalda to'xtatilgandan keyin vujudga kelgan jiddiy vaziyatni hisobga olish. O'sha pallada qishloq xo'jaligida band bo'lgan har bir kishiga to'g'ri keladigan 1,2 gektardan 0,8 gektargacha, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 0,4, Farg'ona vodiysida esa 0,2 gektardan kam yer maydoni kelgusida yanada qisqarib boradi;

- aholi sonining tez sur'atlarda o'sishi munosabati bilan avvalo mintaqadagi imkoniyatlarni o'zlashtirish, xususan, O'zbekistonning o'zida sug'oriladigan yerlarni 4 million gektardan 10 million gektarga yetkazish.

Paxta yakkahokimligi respublika iqtisodiyotining biryoqlama rivojlanib, Ittifoqning xomashyo bazasiga aylanib qolishiga olib keldi. Natijada O'zbekiston eng oddiy sanoat mahsulotlariga bo'lgan o'z ehtiyojining yarmini ham qondirishga qodir emas. Yetishtirilgan paxtaning atigi 9 foizi respublikada qayta ishlanadi. Bir qancha viloyat va tumanlarda ekin maydonlari nisbatida paxtazorlar 75-80 foizni tashkil qildi. Oqibatda asrlar davomida chetga don, meva va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chiqargan mintaqa bunday mahsulotlarning yirik iste'mol qiluvchisiga aylandi.

So'nggi yillarda ahvol asta-sekin o'nglanmoqda, paxta maydonlari qisqarmokda (1987 yilda 2 million 108 ming gektar yerga chigit ekilgan bo'lsa, 1990 yilda 1 million 826 ming gektar yerda paxta yetishtirildi). Sug'oriladigan yerlarni paxtadan bo'shatib olish jamoa va davlat xo'jaligi hududlarida tomorqa uchastkalarini kengaytirish va yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer ajratib berish kabi katta ijtimoiy masalani qisman hal etish imkonini berdi. Shunisi diqqatga sazovorki, paxta hosildorligining ortishi (gektar hisobiga 23,1 sentnerdan 27,7 sentnerga yetishi) tufayli yalpi paxta yetishtirish kamaygani yo'q. Paxtachilik bundan buyon ham qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lib qolaveradi. Lekin paxta yakkahokimligiga qaytilmaydi<sup>1</sup>.

O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini tanlashda respublikaning o'ziga xos xususiyatlarini, albatta, e'tiborga olish kerak.

Birinchidan, sug'orish zonalarida aholi zich joylashgan va bu joylarda yer tanqis. Respublikamizning aksariyat mintaqalarida har bir mehnatchiga 1-1,5 gektar va undan ham ozroq yer to'g'ri keladi. Bunday joylarga yerni xususiy mulk sifatida bo'lib berish katta fojiga aylanib ketishi mumkin.

Ikkinchidan, respublikamizdagi sug'oriladigan dehqonchilik katta-katta kanallar, sug'orish va drenaj tarmoqlari, sug'oriladigan dalalar bilan bog'liq bo'lgan yaxlit yer-suv kompleksini yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda yerning o'zini xususiy mulk sifatida foydalanishga topshirish ma'no kasb etmaydi.


---

<sup>1</sup> I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" T.2011. 376er

Uchinchidan, o'lkamizda asosiy fondlar suv xo'jaligi vositalari, mashina-traktorlar, chorvachilik komplekslari, katta bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaliklar tarzida shakllandi. Bu keng ko'lamdagi asosiy ishlab chiqarish vositalarini yakka xo'jaliklarga bo'lib berish mumkin emas.

To'rtinchidan, paxta yetishtirishga ixtisoslashib qolganlik, ya'ni xo'jalik maydonlarining kengligi (bir ming gektardan boshlab to 6-8 ming gektargacha bo'lishi), sug'oriladigan paykallarning 4-12 gektar yerni egallashi, mehnatning 80 foiziga qadar qismi mexanizmlar yordamida bajarilishi o'sha davrda jamoa va davlat xo'jaliklarini tarqatib yuborishni asossiz qilib qo'ydi. Biroq, ayni paytda, jamoa va davlat xo'jaliklaridagi ishlab chiqarish munosabatlari zamon talablariga javob bermay qolgan edi.


Qishloq xo'jaligi sohasi, uning tarmoqlarini yangi ish uslubiga o'tkazayotgan islohotning asosiy maqsadi – avvalambor, dehqonlarning ishdan manfaatdorligini tubdan o'zgartirishdir, o'z mehnatining hosili, pirovard natijasini birinchi navbatda o'zlariga qaytarishdir, ularning turmush darajasini, saviyasini ko'tarishdir. Shunga asoslanib, jamoa va davlat xo'jaliklarini tubdan o'zgartirib, shaxsiy, kooperativ va dehqon-fermer xo'jaliklariga keng ko'lamda yo'l ochib berish lozim.



Davlatimiz rahbari o'sha davrdagi jamoa va davlat xo'jaliklarining xo'jalik yuritish mexanizmini qayta qurishni, bir tomondan, rahbarlikning ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan usullari bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy usullar bilan almashtirib, boshqaruvning butun mexanizmi shaxs va mehnat jamoasining moddiy manfaatdorligi qoidalariga asoslanishi orqali kam sarf-xarajat bilan ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga erishish; boshqa tomondan, mavjud xo'jaliklarning ichki tuzilishi ijara-kooperativ usuliga, barcha ishlab chiqarish vositalari va xizmat ko'rsatish sohalari mustaqil xo'jalik hisobidan ijara, kooperativ va aksiyadorlik jamoalariga almashtirilishi zarurligi orqali ko'rsatib berdi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi asosiy figura – dehqonlarimizning farovon yashashini ta'minlash, ularning daromadini ko'paytirishning asosiy manbalarini to'g'ri belgilab olish muhim hisoblanadi (*3.5.1-rasmga qarang*).

Shuni aytish kerakki, yer ajratib berilayotganda ko'pgina xo'jalik rahbarlari xavotirda edi – ular jamoa xo'jaliklarida yetishtiriladigan mahsulot kamayib ketmasmikan, deb o'ylashgan edi. Bu xavotir o'rinsiz bo'lib chikdi. 1990 yilda jamoa xo'jaliklari mahsuloti 1989 yildagiga nisbatan 103 foizni tashkil etdi. Shaxsiy xo'jaliklarning bergan mahsuloti hajmi 108 foizga o'sdi.



O'zSSR Prezidentining «Shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining egalari bo'lmish dehqonlarga moliyaviy yordam berish va ularning uyushmasi moddiy texnik bazasini mustahkamlash to'g'risida»gi Farmoniga binoan, dehqonlarga, shaxsiy yordamchi xo'jalik egalari moliyaviy yordam tariqasida 1 milliard so'm

ajratilishi ularning ijtimoiy ahvolini yaxshilashda katta omil bo'ldi. Qo'shimcha ajratilayotgan moliyaviy yordam asosan iqtisodiy jihatdan zaif xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlashga, ularning moddiy-texnik bazasini kengaytirish va mustahkamlashga, mahsulotni qayta ishlaydigan kichik korxonalar qurish, transport vositalari, kichik mexanizatsiya texnikasi va chorva mollarini sotib olishga sarflandi.

Ishlab chiqarishning boshqa yangi usuli – dehqon-fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligini inqirozdan olib chiqadigan yo'ldir. Bunda dehqon-fermer xo'jaligining asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin

O'sha pallada respublikamiz qishloq xo'jaligida dehqon-fermer xo'jaligi rivojlantirishning quyidagi asosiy muammolarini bartaraf etishga asosiy e'tibor qaratish zarur edi:

- qisqa vaqt ichida kerakli texnika vositalari bilan ta'minlash;
- talab qilinayotgan kichik traktorlar, boshqa qulay va ixcham texnika vositalarini ishlab chiqarishni sanoat hali qondira olmaganligi;
- chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarni yem-xashak bilan yetarli ta'minlash, mollarning zotini yaxshilash, ularning mahsuldorligini oshirish.

O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tish va qishloqlarimizning infratuzilmasini yaxshilash maqsadida bu muammolarni hal etish o'sha davrning dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining rahbarlik faoliyatida boshlagan paytida bunga katta e'tibor berdi, ularni hal etishning yagona to'g'ri yo'li – bu iqtisodiyotda bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish ekanini qa'tiy ta'kidlab o'tdi.

### 3.2. Ekologik muammolar va ularning ijobiy echimi

Ekologik muvozanatning Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi, asosan inson faoliyati natijasida, ya'ni insonning tabiiy jarayonlarga aralashuvi kengayib va chuqurlashib borishi sababli paydo bo'ldi. 1970-1985-yillarda bu muammo bashariyat uchun katta tashvish tug'dirdi. Insonning xo'jalik faoliyati yildan-yilga kuchayib bordi, qo'riq yer-lar o'zlashtirildi, yelektr stansiyalari, zavod-fabrikalar qurildi, yangi shaharlar soni ko'paydi. Yangi yerlarning o'zlashtirilishi, sanoat va qishloq xo'jalik korxonalari, transport faoliyatining nazoratdan chetga chiqib ketishi yesa tabiatda mavjud muvozanatni buzib, noxush yekologik vaziyatni vujudga keltirdi.

Butun dunyoda olimlar ekologik muvozanat buzilgan, buning xavf-xatari yadro urushi xavfidan qolish-maydi, deb turgan bir paytda sovet hukumati, KPSS bizning mamlakatimizda yekologiya muammosi yo'q, deb bu tahdidning oldini olish uchun hyech qanday chora ko'rmadi. O'zbekiston olimlariga bu xavf to'g'risida gapirishga yo'l berilmadi.

Islom Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida shunday deydi: «Markaziy Osiyo mintaqasida yekologik falokatning g'oyat xavfli zonalari-dan biri vujudga kelganligini alam bilan ochiq aytish mumkin. Vaziyatning murakkabligi shundaki, u bir necha o'n yilliklar mobaynida ushbu muammoni inkor yetish natijasidagina yemas, balki mintaqada inson hayot faoliyatining deyarli barcha sohalari yekologik xatar osti-da qolganligi natijasida kelib chiqqandir. Tabiatga qo'pol va takabburlarcha munosabatda bo'lishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Biz bu borada achchiq tajribaga yegamiz. Bunday munosabatni tabiat kechirmaydi. Inson-tabiatning xo'jayini, degan soxta socialistik mafkuraviy da'vo, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida ko'plab odamlar, bir qancha xalqlar va millatlarning hayoti uchun fojiga aylandi. Ularni qirilib ketish, genofondning yo'q bo'lib ketishi yoqasiga keltirib qo'ydi».

O'zbekistondagi barcha yirik og'ir sanoat tarmoqlari - metallurgiya, gaz-neft,

yenergetika, kimyo korxo-nalari Ittifoq vazirliklari, mahkamalari qaramog'ida yedi.<sup>1</sup> Yekologiyani asosan o'sha tarmoqlar korxonalari buzib keldi. Lekin Markaz idoralari respublika aholisi salomatligini yemas, balki kam sarf qilib, ko'p daromad olish-ni o'ylardi. Shuning uchun bu korxonalarining rahbarlari atrof-muhitni ifloslantirishga qarshi zarar choralar ko'rmadi.

Shaharlarda sanoat korxonalari atrof-muhitni zaharli gazlar, chiqindilar bilan ifloslantirardi. Ayniqsa, kimyo zavodlari va kombinatlari yekologik vaziyatga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatardi. Bu zavodlarning xavfli tomoni shunda yediki, O'zbekiston aslida aholi zich yashaydigan mintaqalardan hisoblanardi. Kimyo zavodlari asosan aholisi ko'p shaharlarda qurilgan yedi. Masalan, ko'zdan kechirilayotgan yillarda Chirchiq shahrida Chirchiq yelektr kimyo kombinati yoki SSSRda ahoh yeng zich joylashgan shahar hisoblangan Andijonning qoq o'rtasida gidroliz zavodi faohyat ko'rsatardi. Respublikaning ko'pchilik yirik shaharlarida kimyo zavodlari ishlab turardi. Aholi zich bo'lgan shaharlarda joylashgan mazkur korxonalar xalq xo'jahgining u yoki bu tarmoqlarini zarar kimyoviy mahsulotlar bilan ta'minlab, ayni vaqtda atrof-muhitni ifloslantirib, respublika aholisiga, tabiatiga yekologik tahdid solardi. Atmosferaga chiqarilgan zararh chiqindilardan o'simliklar va hayvonot dunyosi zarar ko'rdi, havo, suv, qishloq xo'jalik mahsulotlari zaharlandi. Kimyo sanoati korxonalarida o'sha yillari changlarni ushlab qoladigan va gazlarni tozalaydigan qurilmalar yetarli darajada o'rnatilmagan yedi. Bular aholi istiqomat qiladigan punktlar va sanoat mintaqalari havosining ifloslanishiga sabab bo'lib keldi. Bu holat aholining salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Sovet hukumati amalga oshirgan agrar siyosati tufayli yillar osha mustahkamlanib borgan paxta yakkahokimligi O'zbekiston tabiati muvozanatining buzilishiga sabab bo'ldi<sup>2</sup>.

Paxta yekin maydonlarining beda va oziq-ovqat ekin yerlari hisobiga kengayishi

---

<sup>1</sup> Абдуллаев А. «Пaxта яккахокимлиги: оқибат ва сабоқлар (1917-1991й)». Тошкент. «Истиқлол» 2006.

<sup>2</sup> Абдуллаев А. «Ўрта Осиёда пахта яккахокимлигининг пайдо бўлишидаги илк босқичлар». Услубий кўлланма. Тошкент. 2000. 45 бет

almashlab yekishni cheklab qo'ydi. Monokultura g'o'zaning yoppasiga kasallanishiga ohb keldi. G'o'za zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashda Markaz ko'rsatmasi bilan o'ta zaharh kimyoviy moddalar ishlatildi. 80-yillar o'rtalarida respublikada 90 ming tonna pestisidlar qishloq xo'jaligi-da qo'llanildi. Zaharh moddalar bilan ishlab berish may-donlarning taxminan yarmida samolyotlarda bajarildi. Zaharli moddalarning paxta dalalariga samolyotda sepishi havoni, suvni zaharlab, aholi salomatligiga, tabiatga, hayvonot dunyosiga zarar yetkazdi.

Zaharlilik darajasi yuqori bo'lgan kimyoviy modda-butifos g'o'zani defolyasiya qilish uchun 20 yilga yaqin ishlatildi. Defolyasiya asosan samolyotlarda bajarilar yedi. Ko'p hollarda butifos har gektar paxta maydoniga belgilangan me'yordan 2-3 baravar ko'p ishlatilardi. Zaharh butifosning defolyasiyada keng qo'llanilishi atrof-muhitga va odamlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Respubhka rahbar organlari 1981-yili bu zaharli kimyoviy moddadan foydalanishni taqiqladi. Biroq butifosdan g'o'zani defolyasiya qilishda ayrim xo'jaliklar keyingi yiUarda ham foydalandilar.

Pestisidlarni tashish, saqlash qoidalariga xo'jaliklar yetarh ye'tibor bermas yedi. Respubhka xo'jaliklarida pestisidlar saqlanadigan omborlarning uchdan ikki qismi zaharli kimyoviy moddalar saqlash uchun belgilangan sanitariya normalariga mos kelmasdi. Ularning ko'plari aholi istiqomat qiladigan joylarga, transport yuradigan yo'llarga, ariqlarga yaqin yerlarga qurilgan yedi. Bu hol odamlarning va ichimlik suvlarining zaharlanishiga olib keldi. O'sha davrda qishloqlarda vodoprovodlar juda kam bo'lganligi tufayli ko'pchihk qishloq aholisi ariq va hovuzlardan suv ichar yedi. Pestisidlarni saqlash va qo'llash qoidalariga rioya qilmaslik ariq suvlarining zaharlanishiga, aholi orasida sariq, anemiya (kamqonlik), sil, yurak-qon-tomir va boshqa og'ir kasalliklarning keng tarqahshiga olib keldi.

O'zbekistondagi irrigasiya tarmoqlarining ko'p qismi zamonaviy texnik talablarga javob bermas yedi. Ariqlarning suv shimilishiga qarshi qoplamalari yo'qligi natijasi-da suvning ko'pi yerga singib ketardi. 1978-1982-yillarda respubiikamizda har gektar yerga sarflangan suvning o'rtacha miqdori normadagidan ikki baravar ko'p bo'ldi.

Markaziy idoralar aybi bilan Orol dengizi havzasida tashvishi va halokatli murakkab yekologik vaziyat yuzaga keldi. O'zbekistonda yuzlab, minglab gektar yerlarning meliorativ holati yomonlashdi. Natijada umumdavlat manfaatlariga ham, milliy manfaatlariga ham mos bo'lmagan ahvol vujudga keldi<sup>1</sup>.

Ana shunday bir sharoitda qurilgan suv omborlarining ta'siri ahvolni og'irlashtirdi. Uzoq yillar qishloq xo'jalik muammolari bilan shug'ullangan akademik M. Muhammadjonovning ma'lumotlariga qaraganda, jamiyatimizda yekologik fojining yuzaga kelishida, ya'ni atrof-muhitning yomonlashuvida suv omborlarining ham ulushi bor. Markaziy Osiyodagi yeng yirik Tuyamo'yin suv ombori kuybishevlik loyihachilar takrifiga asosan Sulton Sanjar tuz koni va ko'm-ko'k o'rmonzorlar usti-ga qurildi. Oqibatda asrlar davomida Xorazm vohasini tuz bilan ta'minlab kelgan kon suv ombori tagida qolib ketdi. Ombordagi sho'r suv yesa vohaning paxta dalalari tomon oqizildi. Bu yesa Xorazm viloyatida yekologik vaziyatni juda og'irlashtirib yubordi.

1985-yilga kelib suv omborlari soni yana ham ko'paydi. Ularning ta'siri ostida daryolarning suvi tarkibida tuz va zaharli moddalar ko'payib ketdi. Natijada yerlarning sho'rlanishi milliy fojia sifatida har tomonla-ma xavf sola boshladi. Namangan yerlarining 48 foizi, Andijon yerlarining 23 foizi, Sirdaryo yerlarining 22 foizi kuchli sho'rlandi. Respublikamizda 1,5 mm gektardan ortiq yerlar sho'rlangan yedi.

Suv inshootlarini kengaytirib borish respublika iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ham yega bo'ldi. Qo'riq yerlar suv bilan ta'minlandi, yangi yerlar tashkil yetildi. Biroq ular iqtisodiy samara berishdan tashqari salbiy ta'sir ham ko'rsatdi, ularning natijasida yer osti suvlarining sathi yuqoriga ko'tarilib, haydaladigan yerlarni sho'r va botqoq bosdi, bog'-rog'lar va tokzorlar qurib qoldi<sup>2</sup>.

Orol dengizi fojiasi sovet hukumati va KPSSning atrof-muhit, tabiiy

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. II- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тошкент. «Шарк». 2000.

<sup>2</sup> Алимова Д.А. ва бошқалар. «Ўзбекистон тарихи». (1917-1991). Дарслик. Тошкент. 2000.

resurslardan foydalanishda o'ylamasdan yuritgan siyosati natijasi bo'ldi. Buning bosh sababi Amudaryo va Sirdaryodan sug'orish uchun haddan tashqari ko'p suv olish yedi. Bu holat Orol dengizining qurib borishiga olib keldi va Markaziy Osiyo mintaqasi hamda qo'shni davlatlar yekologiyasiga misli ko'rilmagan tarzda salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Islom Karimov Orol fojiasi haqida shunday degan: «Markaziy Osiyoning hududi bo'ylab sug'orish tizimlarini jadal sur'atda qurish ko'plab aholi punktlariga va sanoat korxonalariga suv berish barobarida keng ko'lamdagi fojia - Orol halok bo'lishining sababiga ham aylandi. Yaqin-yaqinlargacha cho'l-u sahrolardan tortib olingan va sug'orilgan yangi yerlar haqida dabdaba bilan so'zlanardi. Ayni chog'da ana shu suv Oroidan tortib olinganligi, uning «jonsizlantirib qo'yilganligi» xayolga kehnasdi. Yendilikda Orolbo'yi yekologik kulfat hududiga aylandi»<sup>1</sup>.

Suvning tobora kamayib ketayotgani va sifatining yomonlashuvi tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosidagi o'zgarishlarga, baliqni qayta ishlash sohasining yo'qolib ketishiga, shuningdek, sug'oriladigan yerlar samaradorhgingining pasayishiga olib keldi. Yekologik vaziyatning yomonlashuvi Orol dengizi havzasidagi 35 millionga yaqin aholining tunnush sharoitiga, ularning salomatligiga bevosita va bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatdi, xo'jalik faoliyatini buzib yubordi. Bularning barchasi mazkur mintaqadagi migrasion jarayonlarning kuchayishiga olib keldi.

Mustabid sovet tazumining mudhish xatosi bo'lgan Orol fojiasi kun sayin murakkablashib boraverdi. Orol dengizi suv rejimining buzilganligi, sathining halokatli darajada pasayganligi va 2,2 mln gektardan ortiq sho'rxok maydonning qurishi Qoraqalpog'iston uchun, butun O'zbekiston va qo'shni respublikalar uchun yekologik kulfat bo'ldi<sup>2</sup>.

Orol dengizining chekmishi natijasida bu mintaqada tuz-qumli bo'ronlar soni bir necha baravar oshdiki, natijada har uSh osmonga 70 mln t dan ziyod zaharli aralashmalar ko'tarildi. O'zbekistonning Qoraqalpog'iston, Xorazm viloyati va

---

<sup>1</sup> Аминова Р.Х. «Қайта қуриш шaroитида Ўзбекистонда социал ривожланишнинг долзарб муаммолари». Тошкент. «Фан». 1991. 96-бет

<sup>2</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. II- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тошкент. «Шарк». 2000. 196 бет

Turkmanistonning Toshhovuz viloyatining har gektar yeriga yiliga 600-700 kg dan tuz-qum changlar yog'ildirdi. Ko'zdan kechirilayotgan yillarda Orol dengizining qurib borishi Orolbo'yi respublikalari, shu jumladan, O'zbekiston uchun ham katta iqtisodiy zarar keltirdi. Amudaryo quyi oqimi mintaqasi-da baliqchilik, ondatrachilik, ovchilik xo'jaliklari deyarli yo'q bo'lib ketdi. Paxtachilik va chorvachilik 1980-1985-yillarda har yili 30 mln so'mdan ortiqroq zarar ko'rdi.

Biroq pul bilan o'lchab bo'hnaydigan ijtimoiy ziyonlar ham borki, ularni raqamlarda ifodalab bo'hnaydi. Bu inson salomatligidir. Orolbo'yi mintaqasida vujudga kelgan og'ir vaziyat yerli xalq ahvolini nihoyatda tang qilib qo'ydi. Bu yerda turli xil kasalliklar ko'paydi. yosh bolalar o'rni ortib bordi. Nogiron tug'ilgan bolalar soni ham ortdi, bir yoshgacha bo'lgan bolalar orasida o'lim har ming bolaga nisbatan 1980-yildagi 46,5 nafardan 1986-yilda 72 nafarga yetdi. Ayollarning 60 foizi kamqonlik kasalligiga chalingan yedi. Butun Orolbo'yida qorin tifi kasaligi o'ttiz baravar, yuqumli sariq kasalligi yetti baravar ortdi, ayniqsa, rak kasalligi ko'payib ketdi.

1981-1986-yillarda buyrakka tosh yig'ish kasahga chalinganlar o'n marta, surunkali oshqozon kasalligi uch baravar ko'paydi. Yuqumli kasalliklar bilan, ayniqsa, sil bilan og'riganlar soni oshdi.

Orolbo'yi mintaqasida vujudga kelgan og'ir yekologik vaziyatda, ayniqsa, bu dengizga yaqin bo'lgan Mo'ynoq, Qo'ng'iro't, Chimboy kabi shaharlar va ular atrofidagi qishloqlar ko'p aziyat chekdi. 70-yillar boshlarida ham baliqchilik bilan nom chiqargan mo'ynoqliklarning ko'pchiligi oradan o'tgan o'n yil ichida ishsiz, nochor ahvolda tushib qoldi. Shahar rivoj topib turgan paytlarda boshqa joylardan kelib qolgan aholining 80-90 mingdan ortiqrog'i so'nggi vaqtdagi yekologik talafot tufayli yana o'z yurtlariga qaytib ketdi. Qiyinchiliklarga qaramasdan o'z yerida qolgan bardoshli mahalliy xalq murakkab muammolar iskanjasida qoldi.

Orol fojiasi oqibatlariga to'xtalib, Islom Karimov shunday degan: «Orol dengizining qurib borishi va shu jarayon tufayli Orolbo'yi mintaqasidagi tabiiy muhitning buzilishi yekologik fojia sifatida baholanmoqda. Chang va tuz bo'ronlarining paydo bo'lishi, faqat Orolbo'yida yemas, balki dengizdan ancha

naridagi bepoyon hududlarda yerlarning cho'lg'a aylanishi, iqlim va landshaftning o'zgarishi - bular ana shu fojia oqibatlarining to'liq bo'hnagan ro'yxatidir»<sup>1</sup>.

Sovetlar saltanatining O'zbekistonda olib borgan qabohatli mustamlakachilik siyosati, boylik orqasidan quvish, ishlab chiqarishning yekstensiv yo'ldan rivojlantirilishi, paxta yakkahokimligi, turli xildagi ximiyaviy zaharli moddalarning ishlab chiqarilishi va ularning qishloq xo'jaligida haddan ziyod ishlatilishi mamlakatimizda ayniqsa 80-yillarda halokatli tus olgan yekologik buhronni keltirib chiqardi. Aslida shu pul berilmagan yedi. «Inqilo'ydohiysi» bu ajratilgan summani Mirzacho'l yerlarini o'zlashtirishga sarflashni nazarda tutib, o'tgan asming 70-yillarda bu hududlarni «ilmiy tadqiqot» qilgan rus olimi N.F.Ulyanov, P.P.Semyonov-Tyanshanskiy xulosalariga suyangan. Ayni paytda Markaziy Osiyo sharoitidagi tog' reliefi, dasht zonalarining yaqinligi, yuqori quyosh harorati va boshqa shuning singari geografik va iqlimiy xususiyatlar yildan yilga ortib bordi. Urbanizasiya jarayoni kuchayib sug'orma qishloq xo'jalik yekinlari maydonlari kengaydi, kommunikasiyalar o'tkazildi, o'rmonlar kesib yuborildi, suv resurslaridan oqilona foydalanilmadi, yerosti qazilma boyliklari ochiq usulda qazib olindi. Bu ishlar amalda tabiatga nisbatan shafqasizlik, zug'um yedi. Tabiat ham albatta insondan o'ch olishi tabiiy bir holdir. O'zbekiston yekologiyasining buzilishini quyidagi tabiiy holatlar belgilaydi:

Birinchidan, atmosfera havosining haddan tashqari bulg'anayotganligidandir. O'zbekiston shaharlarining deyarlik hammasida havoning ifloslanish darajasi sanitariya talablari darajasidan ancha yomonlashdi. Bu ayniqsa O'zbekistonning sanoat markazlarida xavfli tus oldi<sup>2</sup>. Jumladan olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda havoga chiqarilayotgan zaharli gazlar Olmaliq shahri aholisining .har biriga 1374 kg, Farg'onada 676, Navoiyda 606, Angrenda 509 klogrammdan to'g'ri kelar yekan. Andijon, Guliston, Qo'qon, Qarshl, Toshkent, Chirchiq va boshqa shaharlar havosi eng ifloslangan soaharlardan hisoblanadi. 1990-yilda

---

<sup>1</sup> Зиёев Х. «Ўзбекистонда пахта яккахокимлиги учун кураш ва унинг оқибатлари (XIX асрнинг охирлари XX аср бошлари)». Тошкент. 1999. 48-51 бет

<sup>2</sup> Раззоков А. «Ўзбекистон пахтачилиги тарихи». Тошкент. «Ўзбекистон». 1994. 65 бет

respublika aholsining har bimga hisoblaganda zaharli moddalar chiqiti 203 kilogrammni tashkil yetgan. Bu zaharli moddalarning asosiy manbalari sanoat korxonalari va transport vositalaridir. O'zbekistonnig sanoat korxonalan har ylli 1,2 million tonna, avtotransportdan 2,2 million tonna. zaharli chiqindilar tarqatgan. Birgina Toshkent shahri transporti yiliga 360 ming tonnadan ortiq turli chiqindi gazlarn atrofga purkadl. Ular tarkibida 100 xildan ortiq zaharli moddalar mavjud yedi.

Zaharlanish faqat shaharlargagina xos bo'lmasdan O'zbekiston qishloqlarida ham xavfli tus oldi. Ayniqsa qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan zaharli ximikatlar tablatm xarob qlldl. 1987-1990-yillarda dehqonchilik maydonlarida pestisidlardan foydalamsh. har gektar erga 19,5-24 kilogrammdan bo'lgan holda 79-84 ming tonnani tashkil yetdi. Jami bo'lib qishloq xo'jaligida 70 xilga yaqin turli zaharli kimyoviy moddalar ishlatildi. Ye'tiborli joyi shundaki, bu zaharh kimyoviy moddalaming faqat lfoizigina zararkunanda hasharotga ta'sir qilar yekan, qolgan 99 foizi tuproq, yer, suv, havo, o'simlik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini zaharlagan.

Ahvol shu darajada fojiali tus oldiki, g'o'zalarni defolyasiya qilish bahonasida ming-ming tonnalab zaharli ximikatlarni odamlar boshi uzra samolyotlarda sepildi. Bu har qanday fashizmdan ham dahshatliroq fojia yedi.

O'zbekiston yekologiyasi buzilishining ikkinchi sababi bu suvga bo'lgan munosabat bilan bog'liqdir. Sovetlar hukumatining ochko'zligi, Amudaryo, Sirdaryo, Chirchiq, Zarafshon daryolari suvlaridan hisob-kitobsiz foydalanish oxir-oqibatda Orol fojiasini keltirib chiqardi. Ayniqsa, Amu va Sirdaryoga keyingi 20-30-yil davomida kollektor-zovur sanoat va kommunal xo'jaliklammg tashlandiq va zaharlangan suvlarni oqizishlari bu fojiani yanada kuchaytirdi .. Shu davrda Orolning suv hajmi 60 foizdan ortiq kamaydi, Uning quruqlikka aylangan sathi 2 million gektami tashkil yetadi. Ilgan tuz miqdori har bir litr suvda 9 grammgacha bo'lgan bo'lsa, 90-yillar boshlarida u 2,53 barobar ortdi. Havoga, yerga sochilayotgan tonnalab qum-tuzlar Orolbo'yi atrofida hamjonli va hamjonsiz tabiatni halokat yoqasiga keltirib qo'ydi. Aholi dengiz atroflaridagi o'z

makonlarini tashlab ketishga majbur bo'ldilar. Masalan, Mo'ynoq tumanida aholi 50-yillarga nisbatan ikki barobar kamaygan. Orol fojiasi tufayli o'simlik va hayvonot dunyosi ham halokat yoqasiga kelib qoldi. 1970-yillardan keyingi davrda faqat Amudaryo mansabida qamishzorlar maydoni 7 barobar kamaydi, 50 dan ortiq ko'l qurib bitdi.

Yekologik qabohatning uchinchi sababi tuproq tarkibining o'zgarishi bo'ldi. O'zbekistonda 1990-yilga kelib o'rtacha va kuchli sho'rlangan yerlar 853 ming gektami tashkil yetdi. Tuproq tarkibining o'zgarishiga hisob-kitobsiz ishlatilgan mineral o'g'itlarning halokatli ta'siri ham katta bo'ldi. Chunki mutaxassis olimlarning xulosalariga ko'ra fosfor o'i'iti bilan birgalikda tuproqqa fluor, uran, toriy, og'ir metall tuzlar hayvon o'tar yekan. Yekologiya buzilishining to'rtinchi sababi, respublika hayvonot va nabotot olamining o'zgarishi bo'ldi. O'zbekistonda yovvoyi hayvonlarning - 99, parrandalarning - 410, baliqlarning - 79 turi mavjud. 1990-yilga kelib 32 hayvon, 31 parranda, 5 baliq respublika «Qizil kitobi»ga kiritilgan. «Qizil kitob»ga kiritilgan o'simliklarning soni yesa 163 taga yetdi.

Mamlakatdagi yekologik qabohat aholi o'rtasida har xil kasalliklarning ko'payishiga olib keldi va katta fojialarga sabab bo'ldi. Katta yoshdagi kishilar va o'smirlar o'rtasidagi umumiy kasallanish 1976yildagi 2466,5 kishidan 1990-yilda 3598,6 kishiga yetdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1989-yilning o'zidagina asab sistemasi, teri, teri osti hujyralari kasalliklari 1,4 barobar, qon aylanishi sistemasining kasallanish 1,3 baravar ko'paygan. Faol sil kasalligiga chalinish 3 foiz oshgan. Oshqozon-ichak, virusli gepatit kasalliklari ko'paydi, har xil shish kasalliklari kelib chiqdi.

Xotin-qizlarda kamqonlik kasalligi avjiga mindi, bolalar o'limi ko'paydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat og'ir bo'lgan mintaqalar Orolbo'yi, Toshkent viloyati, ayniqsa Angren, Olmaliq, Chirchiq va Toshkent shahrida, Farg'ona vodiysining ko'pgina shaharlarida turli kasalliklarga chalinish yuqori darajadadir «Orol-88» yekspedisiyasi a'zolarining bergan ma'lumotlariga qaraganda Qoraqalpog'istonning Bo'zatov tumanida har 1000 go'dakdan 260 tasi nobud bo'lgan. O'zbek ayollarining 80 foizi kamqonlik kasalligiga chalingan, har

uch nafar o'zbek yigitlaridan bittasi salomatligi tufayli harbiy xizmatga noloqiql deb topilgan. O'zbekistonda har yili ruhiy nuqsonli 6 mingdan ortiq bola2 tug'ildirdi.

Xullas, 90-yillarda mamlakat boshiga tushgan yekologik qabohat uzoq davom yetishi mumkin yemas yedi. Vujudga kelgan og'ir vaziyat yaxlit ijtimoiy-adolatli yekologik siyosat yuritishni talab qilayotgan yedi.

## XULOSA

Rossiya mustamlakachilari O'rta Osiyoni istilo qilib olgandan keyin yildan-yilga paxta homashyosi miqdorini ko'paytirishga harakat qilib kelganlar. Chunki Rossiya to'qimachilik sanoatini taminlash uchun ko'p miqdorda paxta homashyosi zarur edi. Bunday paxta va tekin ishchi kuchi O'rta Osiyoda mavjud edi. Shu sababli Sovet hokimiyati ham O'zbekistonda paxta maydonlarini ko'paytirishga, ko'proq bu qimmatbaho hom ashyoni tashib ketishga harakat qilganlar.

O'zbekistonda paxta yakkahokimligi eng kuchaygan davri bu II jahon urushidan keying yillarga, XX asrning 60-80-yillariga to'g'ri keladi. O'zbekiston markazni hom ashyo bazasiga aylanishi juda ko'plab o'lkada yechimini topishi zarur bo'lgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi. "Bunday hol deb ta'kidlagan edi Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov - avvalo, butun sovet tuzumiga xos bo'lgan markazlashtirilgan usulda rejalashtirish va taqsimlashdek illatlarning ta'siri edi. O'zbekiston iqtisodiyati asasan hom ashyo tayyorlashga yo'naltirildi va paxta yakkahokimligi yurtimizdagi vaziyatni og'ir ahvolga olib keldi"<sup>1</sup>

Magistrlik dissertasiyasining yakuniy xulosa qismida shunday xulosaga keldikki, Sovet totalitarizm davrida O'zbekistonda amalga oshirilgan paxta yakkahokimligi, paxta maydonlarining yildan-yilga oshib borishi, ko'plab yechimini topishi lozim bo'lgan muammolarni keltirib chiqargan.

Urushdan keyin paxta maydonlarining ortib borishi, birinchi navbatda oziq-ovqat ekinlarining, ayniqsa donli mahsulotlarning, poliz ekinlarining hamda yaylovlarning hisobidan ortib brogan. Buning oqibatida respublikada aholining bu mahsulotlarga talabi ortib borgan, yaylovlar qisqarib chorva mahsulotlari, ayniqsa aholi o'rtasida go'sht va go'sh mahsulotlari, poliz ekinlari iste'moli yildan-yilga kamayib brogan.

Respublika aholisi 1988-yilda rejadagi 51.6 ming tonna poliz mahsulotlari, 126.4 ming tonna ho'l meva, 132.9 ming tonna uzumni kam yetishtirdi. Oqibatda

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" T.2011 34

bozorlarda go'sht 1988-yili 1977-yilga nisbatan 8% ga, kartoshka 22% ga, ho'l meva 14% ga, sabzavot 0.5% ga ko'tarildi. Bozorlarda o'rtacha narxlar Qo'qonda 18.5% ga, Farg'onada 14%, Buxoroda 8%, Toshkentda 4.6% ga oshdi<sup>1</sup>. Bunday holning bosh sababi, avvalambor respublikada paxta maydonlarining markaz buyurtmasiga ko'ra oshib borishi edi. Respublikadagi bu ijtimoiy ahvolni bilib, sezib turgan o'sha davr rahbarlari markazga o'z e'tirozini bildirgan.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistonda asosiy mahsulotlari iste'moli darajasi markazga nisbatan ancha past bo'lgan. Masalan go'sht va go'sht mahsulotlari aholi jon boshiga iste'moli bizda 29-30 kg ni tashkil etsa, Sobiq Ittifoqda 62-64 kg ni, xo'l meva va sabzavot iste'moli bizda 170-173 kg ni Ittifoqda esa 260-270 kg dan to'g'ri kelgan.<sup>2</sup>

Respublikadagi bunday ahvolning sababi, qishloq xo'jaligi bir tomonlama rivojlanishi yani Markazning asosiy hom ashyo yetkazib beruvchi o'lka bo'lib qolganligidadir .

Shularni hisobga olib bu dissertasiyada dissertant milliy mustaqillik ruhida quyidagi xulosalarga keldi:

- Sovet totalitar tuzumining zo'rlashi oqibatida katta maydonlarga paxta homashyosini ekilishi, o'lkani hom ashyo yetkazib beruvchi hududga aylantirdi
- Uning oqibatida yerga ishlov berishning ko'p yillik tajribasi buzilib oqibatda asosiy sug'oriladigan yerlarda doimiy ravishda paxta ekildi, almashlab ekish tajribasi susaydi. Tadqiqot qilinayotgan davrda sug'oriladigan yerlarga paxta o'rniga beda makkajo'xori, poliz ekinlari almashlab ekish atigi 14% ni tashkil etdi xolos; Demak 80-85% yerga tanaffussiz paxta ekilib kelingan.
- Yerga bo'lgan bunday munosabatning natijasida respublikamizdagi yerlarning 50% dan ortig'i har xil darajada sho'rlandi, melorativ holati yomonlashdi, 7% i erroziyaga uchradi<sup>1</sup>
- Bizga ma'lumki respublikamiz umumiy yer maydoni 44410.3 ming gektarni, qishloq xo'jalik yerlari maydoni esa 26753.6 ming gektarni tashkil etadi. Jamiyat

---

<sup>1</sup> Правда Востока, 31 январь 1989 г.

<sup>2</sup>

boyligi bo'lgan yerdan oqilona foydalanmaslik oqibatida keyingi 30 yil davomida bir odamga to'g'ri keladigan qishloq xo'jalik yer maydoni 53.7 % ga, haydalmagan yerlar 41.4 % ga kamayib bugungi kunda bu ko'rsatgich 1.07 gektardan 0.17 gektarga tushib qoldi. Vaholanki bu ko'rsatgich Qozog'istonda 1.54 gektar, Rossiya 0.67 gektar, Ukrainada 0.59 gektar, Qirg'izistonda 0/26 gektarni tashlik etadi.

- Paxta yakkahokimligining qaror topishi bilan o'lka aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi, ayniqsa donli ekinlarga bo'lgan talabi oshib bordi. Oqibatda aholi markaz oldida donga bo'lgan mustamlakachiligi kuchayib bordi.
- Paxta maydonlarining yildan-yilga oshib borishi aholining poliz ekinlariga, xo'l mevaga bo'lgan talabini oshirdi, ularning bozorlardagi narxi oshib bordi.
- Sobiq Ittifoq davrida amalga oshirilgan yer-suv islohotlari (XX asrning 20-yillarida) va jamoalashtirish siyosati oqibatida badavlat dehqonlarning yo'qotilishiga, ularning yerlarini zo'ravonlik bilan tortib olinib, o'ziga to'q yakka dehqon xo'jaliklarining tugatilishiga yerning haqiqiy egalardan ayrilib qolishiga, yer o'zining egasini yo'qotidha olib keldi.
- O'zbekistonda paxta monopoliyasining hukmronligi, o'lkada suv resurslarining kamayishiga olib keldi. Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryosi suvlarining rejasiz ishlatilishi paxta maydonlarining ko'payishi, cho'l zonalarining o'zlashtirilishi oqibatida dunyo global muammosi Orol fojeasini keltirib chiqardi. XX asrning 60-yillarida Amudaryo va Sirdaryo har yili Orolga 56 kub km suv quygan bo'lsa, 1961-1980-yillarda bu ko'rsatgich 20 kub km ga tushib qoldi, 80-yillarga kelib Orolga suv kelib tushishi to'xtadi.
- O'lkada ekologik holat yomonlashdi. Markaziy Osiyo mintaqasida aholi sog'ligi yomonlashib, turli kasalliklarning ko'payishiga, oqibatda bolalar va onalar o'limining ortib borishiga olib keldi.

Demak, O'zbekistonda amalga oshirilgan paxta yakkahokimligi ko'plab ayanchli, salbiy oqibatlarni olib kelgan.

Dissertasiyada shunga to'xtash lozimki bu holatni bartaraf etish uchun kelgusida nima ishlar qilish lozim:

- Paxta maydonlarini qisqartirib hosildorlikni oshirish lozim.
- Respublikada suv resurslarni tejash va paxtani sug'orishda tomchilab sug'orish texnologiyasini qo'llash zarur.
- Qishloq xo'jaligida iqtisodiyotni asosiy tarmog'i bo'lgan fermer dehqon xo'jaliklariga keng imkoniyat yaratish va ularni yanada rivojlantirish lozim.
- Yangi oilalarga tomorqa xo'jaliklar ajratishda oldindan sug'orilib kelingan yerlardan emas, balki yangi o'zlashtirilgan yerlarda ko'proq miqdorda berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu hol davlat yerlarini qishloq joylarida talon-taroj qilishdan asraydi.

Xulosa qilganda, -O'zbekistonda yer-suv munosabatlarida ularni asrash, avaylash, tartibga solish qishloq infratuzilmasini yaxshilash, tabiat in'om qilgan barcha ne'matlarni asrab avaylash maqsadida maktablarda, o'rta –mahsus ta'lim yurtlarida, oliy ta'limda bir nechta mahsus kurslar tashkil etilib yoshlarni o'qitish lozim deb o'ylaymiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. И.А.Каримов. «Тарихий хотирасиз келажак йўқ». Тошкент. «Шарк». 1998.
2. И.А.Каримов. «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари». Тошкент. «Ўзбекистон». 1999.
3. И.А.Каримов. «Ўзбекистон бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли». Асарлар. I жилд. «Ўзбекистон». 1993.
4. И.А.Каримов. «Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида». Тошкент. «Ўқитувчи». 2011.
5. И.А.Каримов. «Ўзбекистон иқтисодий ислохатларни чуқурлаштириш йўлида». Асарлар. III жилд. «Ўзбекистон». 1995.
6. И.А.Каримов. «Юксак маънавият - енгилмас куч». Тошкент. «Маънавият». 2008.
7. Абдуллаев А. «Пахта яккахокимлиги: оқибат ва сабоқлар (1917-1991й)». Тошкент. «Истиқлол» 2006.
8. Абдуллаев А. «Ўрта Осиёда пахта яккахокимлигининг пайдо бўлишидаги илк босқичлар». Услубий қўлланма. Тошкент. 2000.
9. Акрамов Э. «Повышение использования орошаемых земель». «Коммунист Узбекистана». Тошкент. 1988.
10. Алимova Д.А. ва бошқалар. «Ўзбекистон тарихи». (1917-1991). Дарслик. Тошкент. 2000.
11. Аминов Р.Х. «Возвращаясь к истории коллективизации в Узбекистане». Тошкент. «Фан». 1995.
12. Аминов Р.Х. «Истории совхозов Узбекистана 1917 - 1960 г». Опыт, проблемы, уроки. Тошкент. «Фан». 1993.
13. Аминов Р.Х. «Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг аграр сиёсати ва уни сохталаштирувчилар». Тошкент. «Ўзбекистон». 1972.
14. Аминова Р.Х. «Қайта куриш шароитида Ўзбекистонда социал ривожланишнинг долзарб муаммолари». Тошкент. «Фан». 1991.
15. Голованов А.А. Саидов И.М. «Узбекское дехканство на историческом повороте второе половины XIX-первой трети XX века». Самарканд. 2006.
16. Зиёев Х. «Ўзбекистонда пахта яккахокимлиги учун кураш ва унинг оқибатлари (XIX асрнинг охири ва XX аср бошлари)». Тошкент. 1999.
17. Раззоков А. «Ўзбекистон пахтачилиги тарихи». Тошкент. «Ўзбекистон». 1994.

18. Ўзбекистоннинг янги тарихи. II- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тошкент. «Шарқ». 2000.

### **Davriy matbuot nashrlari**

1. Абдуллаев А.Н. Хоразмда совет «инқилоб қиличи ва қамчи тарбияси» сиёсатининг ўрнатилиши // Илм сарчашмалари. - Урганч, 2002. - № 3. - Б. 29-31.
2. Абдуллаев А.Н. Совет даврида пахтачиликдаги «кимёвий зарбалар»нинг оқибатлари // Илм сарчашмалари. - Урганч, 2002. - № 4. - Б. 25-29.
3. Абдуллаев А.Н. Бозор муносабатларига ўтиш шароитида Ўзбекистоннинг аграр сиёсати // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. - Тошкент, 2003. - № 5. - Б. 10-16.
4. Абдуллаев А.Н. Оқ пахта юзидаги доғлар // Мулоқот. - Тошкент, 2003. - №6. - Б. 28.
5. Абдуллаев А.Н. Пахтачилик: турғунлик йиллари манзаралари // Қонун ҳимоясида. - Тошкент, 2003. - № 11. - Б. 34-36.
6. Абдуллаев А.Н. Тикланишнинг илк босқичида // Ҳаёт ва қонун. - Тошкент, 2004. - № 6. - Б. 19-20.
7. Абдуллаев А.Н. Кечаги кун дардлари // Қонун ҳимоясида. - Тошкент, 2005. - №1. - Б. 36.
8. Абдуллаев А.Н. Асорат // Қонун ҳимоясида. - Тошкент, 2005. - № 5. - Б. 36.
9. Абдуллаев А.Н. XX аср иккинчи ярми Ўзбекистон пахтачилигида ирригация-мелиорация ишларини интенсифлаштиришдаги муаммо ва ечимлар ҳақида // СамДУ илмий тадқиқотлар ахборотномаси. - Самарқанд, 2005. - № 5. - Б. 17-21.
10. Абдуллаев А.Н. Тошбағирлик ёхуд яқин ўтмишдаги мудхиш хатоликлар ҳақида // Ҳуқуқ ва бурч. - Тошкент, 2006. - № 8-9. - Б. 61.
11. Абдуллаев А.Н. Шўролар даврида пахтачиликнинг аҳволи // Жамият ва бошқарув. - Тошкент, 2006. - № 4. - Б. 84-86.
12. Абдуллаев А.Н. Истоки зарождения хлопковой монокультуры в Туркестане // Таълим тизимида ижтимоий гуманитар фанлар. - Тошкент, 2006. - №3. - С. 76-79.
13. Абдуллаев А.Н. Пахта яққаҳоқимлигининг аҳоли турмуш даражасига таъсири масалалари // Фалсафа ва ҳуқуқ. - Тошкент, 2008. - № 1. - Б. 49- 50.
14. Абдуллаев А.Н. Ўзбекистонда совет ҳокимияти янги иқтисодий сиёсатининг амалга оширилиши ва пахтачилик (1921-1924 й.й.)//Ўзбекистон тарихи. - Тошкент, 2008. - № 1. - Б. 35-42.
15. Абдуллаев А.Н. Бухоро Республикасининг ижтимоий-иқтисодий аҳволи (1920-1924 й.й.) //Бухоро давлат университети илмий ахбороти. - Бухоро, 2009. - № 1. - Б. 17-20.